

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 39:798.25(575.151)(043)

SAGDULLAYEV TEMUR SHUKURILLO O'G'LINING
O'ZBEK ETNOSPORDIDA SURXON VOHASI CHAVANDOZLIK
SAN'ATINING O'RNI VA AHAMIYATI

70230501 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi bo'yicha
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiyrahbar

t.f.n. dos. J.Mirzayev

Termiz – 2024

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining № -T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manziling QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ t.f.n. dos. J.Mirzayev

Kafedra mudiri: _____ t.f.d. S.Tursunov

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: ___k.f.f.d., PhD D.Abduraximov

**70230501 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi
magistranti Sagdullayev Temur Shukurullo o'g'lining**

**“O'zbek etnosportida Surxon vohasi chavandozlik san'atining o'rni va
ahamiyati” mavzusida magistrlik dissertatsiyasi**

ANNOTASIYASI

Tayanch so'zlar: chavandozlik, ko'pkari, uloq tortish, o'zbek etnosporti, bakovul, xo'jalik faoliyati, xalq og'zaki ijodi, halol.

Tadqiqot ob'yektlari: O'zbek etnosportida Surxon vohasi chavandozlik san'atining o'rni va ahamiyatini zamonaviy etnologik usullari yordamida o'rganish tashkil etadi.

Ishning maqsadi vavazifalari: Tadqiqot maqsadi va vazifalari O'zbek etnosportida Surxon vohasi chavandozlik san'atining o'rni va ahamiyatini ilmiy o'rganishdan iborat. Ilmiy qarashlar va nazariyalar tahlili asosida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Chavandozlik san'atining tarixiy manbalarda aks etishini o'rganish;
- Ko'pkari o'tkaziluvchi joylarni aniqlash;
- O'zbek etnosportida Surxon vohasi chavandozlari haqida ma'lumot berish;
- Surxon vohasi xo'jalik faoliyatida yilqichilikning vohaga xos lokal xususiyatlarini tahlil etish;
- O'zbek milliy dostonchiligida ask etgan chavandozlik san'ati ahamiyatini aniqlash;

Surxon vohasi etnosportida chavandozlik san'atining milliy o'yin turlari haqida ma'lumot berish

Tadqiqot metodlari: Dissertatsiyada tarixiy-qiyosiy, tahliliy va tizimli usullar qo'llanilib, umumnazariy tahlillar asosida yondashilgan.

Olingan natijalar va ularning yangiligi: Qadim davrlardan yilqichilik ancha rivojlangan. Afsonaviy otlar xalq ijodida, doston va rivoyatlarda, shoirlar va baxshilar tilida kuylangan. Otlar minish, aravaga qo'shish hamda yuk tashish uchun parvarish qilingan. Mahalliy aholi ayniqsa, qorabayir, loqay kabi navlarni parvarish qilganligini asoslash;

Yilqichilikda ham xuddi chorva mollarini yoshiga, jinsiga qarab nomlaganidek, yilqilarni ham yoshiga, jinsiga va rangiga qarab nomlashadi hamda tavsiflashadi. Jumladan: endi tug‘ilgani *qulun*, so‘ngra *toy* deyiladi. Ikki yoshdan uch yoshga qadar *g‘unon*, uch yoshdan to‘rt yoshga qadar *do‘nan* deb nomlanadi. To‘rt yoshdan oshgandan so‘ng urg‘ochisi *baytal*, erkagi *ayg‘ir* deyiladi. Shuningdek, qishloqlarda otning rangiga va tanasidagi a‘zolariga qarab otning yaxshi yoki yomon xislatlarini aytib berishadi. Yaxshi, ko‘rkam otni *aston baytari* deyishadi. Xalv orasida yilqichilik bo‘yicha bilimlar ancha ravnaq topganligini tahlil qilish;

O‘zbek milliy dostonchiligida ask etgan ko‘pkari o‘yini insonparvarlik, vatanparvarlik, do‘stlik, hamkorlik, o‘zora qo‘shnichilik, mardlik, jasurlik, or-nomus, sevgi-vafo g‘oyalarni o‘zida mujassasm etgan. Ilmiy izlanishlarga asoslanib, o‘zbek xalqi milliy an‘analariga xos ko‘pkari xalqni hushyorlikka, mehnasevarlikka undash bilan birga, tabiatga mehr, jozotlarga insoniylik to‘yg‘usi bilan qarash, ot insoni yo‘ldoshi, hayvonlari ichida vafodori, qo‘riqchisi, qiyin vaziyatlarda suyanchig‘i, janglarda madatkori, yigitni oru-nomusini saqllovchi, himoyachisi ekanligi doimiy o‘tkazilib kelingan musobaqalarda, halq orasida qadimdan o‘tkazilib kelinganligi dostonlarda o‘z aksini topganligini ochib berish;

Chovog‘on harakatchan, chiniqqan, otni sevgan, halol, ot afzallarini, chavandoz kiyim-kechagi poyafzalini qadrlaydigan, muhimi ot parvarishni ham chuqur biladigan, mard, botir bo‘lishi zarurligi dalillangan.

Ko‘pkari o‘yinimintaqada keng tarqalgan o‘yinlardan biri bo‘lib, nikoh va sunnat to‘ylarida, Navro‘z paytlari qir-adirlarda o‘tkaziladi. Ko‘pkarining asosiy ishtirokchisi chavandoz va uning otidir. Uning qatnashchilari *chopag‘on* deyiladi. Ko‘pkarining ba‘zi joylarda *uloq* yoki *uloq tortish* singari nomlari borligi ochib berilgan.

Amaliy ahamiyati: Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida qo‘shimcha adabiyot bo‘lishi, tarixiy va nazariy ma‘lumotlar o‘rnida xizmat qilishi, O‘zbekiston tarixi va Etnografiya fanlariga doir darslik va qo‘llanmalar

yaratilishiga va zamonaviy ommaviy axborot vositalarida targ'ib etilishi va tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish bilan izohlanadi.

Tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi: O'zbek etnosportida Surxon vohasi chavandozlik san'atining o'rni va ahamiyatini ilmiy o'rganish Vatanimizning jahon andozalari tizimiga qo'shilishiga ko'maklashishda muhim ahamiyat kasb etadi..

Qo'llanish sohasi:Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida qo'shimcha adabiyot bo'lishi,tarixiy va nazariy ma'lumotlar o'rnida xizmat qilishi mumkin.

Master's dissertation on the topic "The role and importance of equestrian art of the Surkhan oasis in Uzbek ethnosport"

ANNOTATION

Key words: equestrianism, kopkari, goat pulling, Uzbek ethnosport, bakovul, economic activity, folklore, halal.

Research objects: the role and importance of equestrian art of the Surkhan oasis in Uzbek ethnosport is studied using modern ethnological methods.

The purpose and tasks of the work: The purpose and tasks of the research is to scientifically study the role and importance of the equestrian art of the Surkhan oasis in Uzbek ethnosport. Based on the analysis of scientific views and theories, the following tasks were determined:

To study the reflection of equestrian art in historical sources;

Determining the most frequented places;

Providing information about riders of the Surkhan oasis in Uzbek ethnosport;

Analyzing the local characteristics of summer farming in the economic activity of the Surkhan oasis;

Determining the importance of equestrian art in the Uzbek national epic;

Providing information about the national games of equestrian art in Surkhan oasis ethnosport

Research methods: Historical-comparative, analytical and systematic methods are used in the dissertation, and it is approached on the basis of general theoretical analysis.

The obtained results and their novelty: Since ancient times, the yearling has been very developed. Legendary horses were sung in folk works, epics and narratives, in the language of poets and poets. Horses were groomed for riding, carting, and carrying goods. Justifying that the local population especially cared for varieties such as blackberry and lokai;

In horse breeding, just as cattle are named according to their age and sex, horses are also named and described according to their age, sex, and color. For example: the one born now is called slave, then the bride. From two to three years old, it is called gunon, and from three to four years old, it is called donan. After four years, a female is called a stallion, and a male is called a stallion. Also, in the villages, they tell the good or bad qualities of a horse depending on its color and body parts. A good, handsome horse is called an Aston vetari. Analyzing the fact that the knowledge of horticulture among the Halv is much more developed;

The game of kopkari in the Uzbek national epic embodies the ideas of humanity, patriotism, friendship, cooperation, good neighborliness, courage, bravery, honor, love and loyalty. Based on scientific research, the Uzbek national tradition encourages the majority of the people to be alert and diligent, while also loving nature, looking at animals with a sense of humanity, the horse is a companion of man, a loyal companion among animals, and a guardian. , to reveal that he is a supporter in difficult situations, a helper in battles, a protector of a young man's honor, in competitions that have been held since ancient times, in epics that have been held since ancient times;

It has been proven that a shepherd must be active, trained, love horses, honest, appreciate the advantages of horses, the rider's clothes and shoes, and most importantly, have a deep knowledge of horse care, brave and courageous.

Kopkari game is one of the most popular games in the region, and it is played at weddings and circumcisions, during Nowruz, in the hills. The main participants

of Kopkari are the rider and his horse. Its participants are called shepherds. It has been revealed that many places have names such as goat or goat pulling.

Practical importance: to have additional literature in higher and secondary special educational institutions, to serve as historical and theoretical information, to create textbooks and manuals on the history and ethnography of Uzbekistan, and modern public it is explained by its promotion in the media and its use in the development of events.

Level of implementation and economic efficiency: scientific study of the role and importance of equestrian art of the Surkhan oasis in Uzbek ethnosport is of great importance in helping our country join the system of world models.

Field of application: Higher and secondary special educational institutions may have additional literature, serve instead of historical and theoretical information.

MUNDARIJA

KIRISH	10
I BOB. CHAVANDOZLIK SAN'ATI TARIXIY MANBALARDA	
1.1. Chavandozlik san'atining tarixiy manbalarda aks etishi.....	14
1.2. Ko'pkari o'tkaziluvchi joylar.....	19
I. bob bo'yicha xulosalar.....	25
II BOB. O'ZBEK ETNOSPOTIDA SURXON VOHASI CHAVANDOZLARI	
2.1. O'zbek etnosportida Surxon vohasi chavandozlari.....	27
2.2. Surxon vohasi xo'jalik faoliyatida yilqichilikning o'rni.....	34
II bob bo'yicha xulosalar.....	39
III BOB. XALQ OG'ZAKI IJODIDA CHAVANDOZLIK SAN'ATI	
3.1. O'zbek milliy dostonchiligida ask etgan chavandozlik san'ati.....	42
3.2. Surxon vohasi etnosportida chavandozlik san'atining milliy o'yin turlari.....	56
III bob bo'yicha xulosalar.....	63
XULOSA.....	68
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR.....	70
ILOVALAR.....	73

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. O‘zbek xalqi milliy qadriyatlariga xos bu ajoyib xislatlar otadan farzandga, bobodan nabiraga, hamqishloq chavandozlardan yosh ishqiboz chavandozlarga o‘tib ajdoddan avlodlarga saboq bo‘lib qoladi. Ota yoki bobo yosh bolalarni yoshligidan otdan qo‘rqmaslikka, otda erkin yurishga, ot afzallarini o‘z o‘rnida qo‘yib foydalanishga, otda chapdastlik, chaqqonlik, muovzanat saqlashga, borg‘uni oyoq taqimi ostiga olishga, ko‘pkarida g‘irromlik qilmaslikka, raqib chavandozga shikast yetkazmaslikka, qamchi tortib yubormaslikka, halollikka o‘rgatib boriladi.

Albatta chavandozlik o‘ziga xos bir san‘at bo‘lgani kabi yaxshi otlarni yetishtirish, ko‘paytirish, ularni boqa bilish, tarbiyalay olish ham bundan qolishmaydigan san‘atdir. Yaxshi otlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi va kamolga yetmaydi.

Surxon vohasi mardlik, jasurlik timsoli sifatida o‘zining chavandozlari bilan faxrlanadi. Alpomish avlodlari bo‘lgan chavandozlar vatan obro‘yi, or-nomusi, vijdoni hamda mustaqilligi uchun doim chaqqonlik, abjirlik, hushyorlik va kuchlilikni o‘zlarida aks ettirganlar.

Shu jihatdan olganda o‘zbek etnosportida Surxon vohasi chavandozlik san‘atining o‘rni va ahamiyatini zamonaviy etnologik usullari yordamida ko‘rsatish va tahlil etish tadqiqot ishining dolzarbligini va zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot obekti va predmeti. O‘zbek etnosportida Surxon vohasi chavandozlik san‘atining o‘rni va ahamiyatini zamonaviy etnologik usullari yordamida o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari O‘zbek etnosportida Surxon vohasi chavandozlik san‘atining o‘rni va ahamiyatini ilmiy o‘rganishdan iborat. Ilmiy qarashlar va nazariyalar tahlili asosida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Chavandozlik san‘atining tarixiy manbalarda aks etishini o‘rganish;
- Ko‘pkari o‘tkaziluvchi joylarni aniqlash;

- O‘zbek etnosportida Surxon vohasi chavandozlari haqida ma’lumot berish;
- Surxon vohasi xo‘jalik faoliyatida yilqichilikning vohaga xos lokal xususiyatlarini tahlil etish;
- O‘zbek milliy dostonchiligida ask etgan chavandozlik san’ati ahamiyatini aniqlash;
- Surxon vohasi etnosportida chavandozlik san’atining milliy o‘yin turlari haqida ma’lumot berish.

Ilmiy yangiligi. Qadim davrlardan yilqichilik ancha rivojlangan. Afsonaviy otlar xalq ijodida, doston va rivoyatlarda, shoirlar va baxshilar tilida kuylangan. Otlarminish, aravagaqo‘shishhamda yuk tashishuchunparvarishqilingan. Mahalliyaholiayniqsa, qorabayir, loqaykabinavlarniparvarishqilganligini asoslash;

Yilqichilikda ham xuddi chorva mollarini yoshiga, jinsiga qarab nomlaganidek, yilqilarni ham yoshiga, jinsiga va rangiga qarab nomlashadi hamda tavsiflashadi. Jumladan: endi tug‘ilgani *qulun*, so‘ngra *toy* deyiladi. Ikki yoshdan uch yoshga qadar *g‘unon*, uch yoshdan to‘rt yoshga qadar *do‘nan* deb nomlanadi. To‘rt yoshdan oshgandan so‘ng urg‘ochisi *baytal*, erkagi *ayg‘ir* deyiladi. Shuningdek, qishloqlarda otning rangiga va tanasidagi a‘zolariga qarab otning yaxshi yoki yomon xislatlarini aytib berishadi. Yaxshi, ko‘rkam otni *aston baytari* deyishadi. Xalv orasida yilqichilik bo‘yicha bilimlar ancha ravnaq topganligini tahlil qilish;

O‘zbek milliy dostonchiligida ask etgan ko‘pkari o‘yini insonparvarlik, vatanparvarlik, do‘stlik, hamkorlik, o‘zora qo‘shnichilik, mardlik, jasurlik, or-nomus, sevgi-vafo g‘oyalarni o‘zida mujassasm etgan. Ilmiy izlanishlarga asoslanib, o‘zbek xalqi milliy an’anlariga xos ko‘pkari xalqni hushyorlikka, mehnasevarlikka undash bilan birga, tabiatga mehr, jozotlarga insoniylik to‘yg‘usi bilan qarash, ot insoni yo‘ldoshi, hayvonlari ichida vafodori, qo‘riqchisi, qiyin vaziyatlarda suyanchig‘i, janglarda madatkori, yigitni oru-nomusini saqllovchi, himoyachisi ekanligi doimiy o‘tkazilib kelingan musobaqalarda, halq

orasida qadimdan o'tkazilib kelinganligi dostonlarda o'z aksini topganligini ochib berish;

Chovog'on harakatchan, chiniqqan, otni sevgan, halol, ot afzallarini, chavandoz kiyim-kechagi poyafzalini qadrlaydigan, muhimi ot parvarishni ham chuqur biladigan, mard, botir bo'lishi zarurligi dalillangan.

Ko'pkari o'yinimintaqada keng tarqalgan o'yinlardan biri bo'lib, nikoh va sunnat to'ylarida, Navro'z paytlari qir-adirlarda o'tkaziladi. Ko'pkarining asosiy ishtirokchisi chavandoz va uning otidir. Uning qatnashchilari *chopag'on* deyiladi. Ko'pkarining ba'zi joylarda *uloq* yoki *uloq tortish* singari nomlari borligi ochib berilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. O'zbek etnosportida Surxon vohasi chavandozlik san'atining o'rni va ahamiyatini ilmiy o'rganish Vatanimizning jahon andozalari tizimiga qo'shilishiga ko'maklashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Mavzu tarixshunosligi tahliliga ko'ra, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar, asarlar, tahlillarni o'rganish ilmiy ahamiyatga molikdir. Umuman olganda, ushbu mavzuga oid manba va adabiyotlarni quyidagicha tahlil qilish mumkin: O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarni sharhlasak, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng milliy qadriyatlarimiz tiklana boshlandi va e'tibor kuchaydi. Milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, milliy bayramlarimiz qayta tiklandi. Ularni keng tadqiq etish imkoniyati yuzaga keldi. Bu sohada Surxondaryo - etnografik makon yo'nalishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan monografiyalarda to'xtalib o'tilgan¹.

¹Toшпўлатов Ж. Чавандозўзбегимйигитлари. Тошкент. Янги асравлоди, 2008.; Файзуллаева М., Кичкилов Ш. Хомкон. Тошкент, 2022.; Турсунов С., Пардаев Т., Махмадиёрова Н. Сурхондарё – этнографик макон. - Т.: Akademnashr, 2012. – 232 б.; Турсунов С. Сурхондарё этнографияси. – Т.: Tafakkur, 2020. – 208 б.; Турсунов С., Қобулов Э. Сурхондарё тарихи. – Т.: Tafakkur, 2020. – 258 б.; Турсунов С., Пардаев Т., Қурбонов А., Турсунов Н. Ўзбекистон тарихи ва маданияти – Сурхондарё этнографияси. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. - 278 б.; Турсунов С., Пардаев Т., Пайғамов А., Нарзуллаева Н. Сурхон воҳаси моддий маданият тарихи. – Т.: Muharrir, 2013. - 324 б.; Турсунов С., Эшбоев Қ. Шўрчи тарихи ва этнографияси. - Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 320 б.; Турсунов С., Рашидов Қ. Бойсун. - Т.: Akademnashr, 2011. – 430 б.; Турсунов С., Турсунов А., Тоғаева М. Шеробод

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Dissertatsiyada tarixiy- qiyosiy, tahliliy usullar qo'llanilib, umumnazariy tahlillar asosida yondashilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida qo'shimcha adabiyot bo'lishi, tarixiy va nazariy ma'lumotlar o'rnida xizmat qilishi, O'zbekiston tarixi va Etnografiya fanlariga doir darslik va qo'llanmalar yaratilishiga va zamonaviy ommaviy axborot vositalarida targ'ib etilishi va tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish bilan izohlanadi.

Ish tuzilmasining tavsifi. Tadqiqot kirish, 3 bob, 6 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 70 sahifani tashkil etadi.

I BOB. CHAVANDOZLIK SAN'ATI TARIXIY MANBALARDA

тарихидан лавҳалар. - Т.: Yangi nashr, 2014. - 356 б.; Турсунов С., Тўхтаев А., Аннаева З. Жарқўрғон тарихидан лавҳалар. - Т.: Yangi nashr, 2019. - 315 б.

1.1. Chavandozlik san'atining tarixiy manbalarda aks etishi

Surxon vohasi qadimdan o'zbek davlatchiligining mustahkam rivojlanishida, chet el bosqinchilariga qarshi kurashda, ichki nizo va ziddiyatlarni bartaraf etishda, mard, jasur qahramonlarni yetishtirib chiqargan yurt bo'lishi bilan bir qatorda, polvonlar, chavandozlar vatani sifatida jahonga tanildi. Boysun milliy urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarga asos solgan yurt, milliy g'urur, vatanparvarlik, insonparvarlik, g'oyalarini komil insonni tarbiyalash kabi o'ziga xos xususiyatlari bilan kishilarni hayratga solgan.

O'zbek xalq maqolalarining birida ot yigitning qanotidir, deyilgan. Chindan ham shunday. Ot olis safarlarda, jangu-jadallarda-ya'ni Vatanni bosqinchi dushmanlardan himoya etishda yigitning hamroxi, hamkori, chinakkam do'sti bo'lgan. Tulporlarning yurtib yurishlari, yo'rg'alab yurishlari, yollarini baxor shabbodasida xilpiratib chopishlari, ko'kka sapchib ikki oyoqda turishlari kishiga zavq keltiradi.

Surxon vohasi moddiy madaniyat tarixining eng qadimgi davrini o'zida aks ettirgan Xolchayon 1960 yilda arxeologlar tomonidan aniqlanib, bu yodgorlik tarix faniga boy tarixiy manbalarni taqdim etdi. Qadimiy tarixiy qadamjolar hisoblangan Qorabog', Maslahat, To'g'anoq, Sichqon, Shayit, Qo'y-qirqilgan, Qo'y-To'rabek, Xonaqa tepaliklari arxeolog olimlar tomonidan o'rganilib, xalq og'zaki ijodiyotda rivoyat sifatida asrlardan-asrlarga o'tib kelayotgan fikrlar tarixiy jihatdan ilmiy tahlil etildi²

Xolchayondagi Xonaqa tepaligi ostida qadimda hashamatli saroy bo'lgan. Ushbu topilma miloddan avvalgi V-I asrlarda gurkirab yashnagan Xolchayon saroyining hashamatli binosidagi 6 ustun ayvon bilan 10 xonani o'z ichiga olgan bo'lib, asosiy markaziy zalda bir-biriga o'xshamagan 35 ta erkak va ayollar qiyofalari va 7 ta otda yelib kelayotgan chavandozlar qiyofasi devorlarga rasm sifatida chizilgan. Markaziy zaldagi marosim ishtirokchilarining qiyofasi

²Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Сурхон воҳаси моддий маданият тарихи. Тошкент: "Muharrir" нашриёти, 2013. – Б. 40

nihoyatda san'at asari sifatida mukammal ishlangan bo'lib, Xolchayon topilmalaridagi xaykallar 40 yildan ortiqroq O'zbekiston tasviriy san'at Davlat muzeyida namoyish etilib, San'atshunoslik instituti ilmiy kolleksiyasini boyitib turibdi³.

Tadqiqotlar natijasida topilgan katta haykal kallasida yunon uslubi o'zini alohida aksini topgan. Eng muhimi Xolchayon topilgan tangalarda O'zbekiston, Tojikiston, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston yerlarida keng tarqalgan dastlabki, kushon tangalaridagi kabi sirli shaxs tasviri kengroq zarb qilingan. Xolchayon tangalarning yuz tomoniga bir tomonga qarab turgan hukmdor tasviri bo'lib, ikkinchi tomonda esa Osiyoliklar kiyimidagi qurollangan otliq podshohga g'alaba xudosi Nika toj kiydirayotganligi aks etgan. Tangadagi yozuvda "hukmdor Geray Sanab-Kushon" degan so'zlar bitilgan, Geray dastlabki Kushon hukmdori Kujula Katfizdan oldin yashagan, uning zamonida kushonlar imperiyasi tarkib topmagan edi. Geray hokimiyat tepasiga chiqqach, Kushonlar tangasini birinchi bo'lib zarb etdi. U o'zigacha bo'lgan yunon-makedon hukmdorilarga o'xshab, Yunoniston madaniyatiga ko'r-ko'rona taqlid qilmadi, aksincha Osiyo madaniyatini unga uyg'unlashtirdi. Xolchayon xaykallarida Geraydan tashqari boshqa saroy a'yonlari, chetdan kelgan elchilar, ot choptirib ketayotgan chavandozlar, sozandalar, masharabozlar ham tasvirlangan. Xolchayon haykallaridagi o'xshashlik, Xolchayon Gerayning yoki unga yaqin og'a-inilarining turarjoyi bo'lgan, degan xulosaga olib keladi⁴.

Surxon vohasi qadimiy tarixini o'rganishda taniqli arxeolog olim Baxodir Turg'unov va San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti professor Galina Anatolyevna Pugachenokova rahbarligida Xolchayon qishlog'idagi Xonaqo tepaligida 1960-1963 yillari tadqiqot ishlarini olib borib, loydan ishlangan 35 taga yaqin erkak, ayol va otlarning yelib ketayotgan chavandoz haykallari va ularning

³Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Сурхон воҳаси моддий маданият тарихи. Тошкент: "Muharrir" нашриёти, 2013. – Б. 41

⁴Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Сурхон воҳаси моддий маданият тарихи. Тошкент: "Muharrir" нашриёти, 2013. – Б. 42

bino zallarining devorlarida qay shaklda o'rnatilganligi haqida baxslashib turganlarini aks ettirgan devoriy sur'atlarni aniqladilar. G.A.Pugachenkova va B.Turg'unov tepalik ostidan topilgan bir necha mis tangalarni aniqlab, tangalar miloddan avvalgi IV va milodiy I asrlarga mansub ekanligini aniqlab, ushbu tepalikda podshoning hashamatli saroy qurilganligini, ushbu saroyga bundan 2400-2300 yil avval asos solinganligini isbotlab berdi⁵.

Surxon hududidan topilgan arxeologik materiallar, qoyatoshlarga o'yib va chizib ishlangan rasmlar qal'a va saroy devorlarini bezagan devoriy tasvirlar qo'lyozma kitoblarga, ishlangan mo'jaz rasmlar yozma manbalarda keltirilgan qaydlar, bu hududda dorvozlik san'ati qadimdan rivojlanganligini ko'rsatadi. Xususan, Zarautsoydantopilgan qoyatosh rasmlarida ov manzaralari, chavandozlar, ovdan keyingi shodiyonalik, hayvon va qushlarni tasviri, otda chavandozlik mahoratini namoyish etish va boshqa lavhalar aks ettirilgan. Tuproq qal'a, Jarqo'ton, Bolaliktepa, Xolchayon, Dalvarzintepadan masharabozlarning sopol haykalchalari topilgan devoriy rasmlarda masharabozlar va turli niqoblar aks ettirilgan. XVII-XVIII asrlarda Turkistondan san'atkorlar Rossiyaga borib o'z san'atini namoyish qilgan Buxorolik darvozlar(Mir Orif to'dasi)Moskvada bir yili (1784-1785 yillar) dor tikib tomoshabinlarga tinmay nafis o'yinlar ko'rsatishgan⁶.

Otlar haqida juda ko'p afsona va rivoyatlar bor. Alpomishning Boychibor Go'ro'g'li va Avazxonning G'iro't tulporlari haqida dostonlarda madx etilgan. Insonga otday mexribon, sodiq jonivor bo'lmaydi.

Iste'dodli baxshi Ergash Jumanbulbul o'g'lining «Qunduz va Yulduz» degan dostonida bir lavxa bor. «Avazxon dushman askarlari bilan jang qilib, ko'pini qirib tashlaydi. Oxiri o'zi yarador bo'lib xushdan ketib qoladi. Shunda G'iro't o'z soxibini belbog'idan tishlab toqqa olib chiqib ketadi. Yovlar uni quvib

⁵Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Сурхон воҳаси моддий маданият тарихи. Тошкент: "Muharrir" нашриёти, 2013. – Б. 44

⁶ТурсуновС., РашидовҚ.Бойсун.Академнашр нашриёти, 2011. – Б. 279.

yetolmaydilar. Avazxon xushiga kelib, ko‘z ochib qarasa, G‘irot tepasida ko‘z yosh to‘kib turganmish. Shunda Avazxon G‘irotni: «Jonim G‘irot, molim G‘irot, seni mingan topgay murod» deb erkalagan ekan⁷.

Manbalarda yozilishicha: Sohibqiron Amir Temur ham chopqir otlarni juda qadrlagan. Chunki otlar janglarda, olim safarlarda uning sodiq do‘sti, doimiy hamroxi bo‘lgan. Sohibqironni necha bor o‘limdan, dushmanlarning qilich va nayzalaridan asrab qolgan⁸.

Umar Xayyom o‘zining «Navro‘znoma» asarida ham «Ot va uning fazilatleri haqida yozib qoldirgan. Aytadilarki, to‘rt oyoqlilar ichida otdan yaxshisi yo‘q, chunki u o‘tlovchi to‘rt oyoqlilarning podshoxidir.

Rasul alayxi-s-salom «Xayr yilqining peshonasiga yozilgan» - degan.

Forslar otni «bodjon» (yeljon), rumiylar «bodpoy»(shamol oyoqli), turklar «qutlug‘-qadam » va «Baxtiyor etuvchi», xindlar «taxti ravon», arablar yerdagi Burok deb ataganlar.

Aytishlaricha, quyosh gardunini ko‘tarib yuruvchi farishta «alus» deb ataluvchi ot suratida emish.

Afridundan so‘radilar: «Ey shox! Nega sen otda yurmaysan?» U javob berdi: «Yazdonga yetarli darajada minnaddorchilik bildira olmayman deb qo‘rqaman».

Kayxusrav aytdiki: «Mening podshoxligimda otdan qimmatliroq narsa yo‘q».

Xalifa Ma‘mun aytdiki: «Ot qanday yaxshi, u osmoni Gardon va taxti ravondir».

Xazrati Ali aytadiki: «Xaq taolo insonni yuksaltirish va shaytonni past qilish uchun otni yaratgan».

Muhammad ibn Abu Sufr aytganki: «Ot-qilich yarqiraganda qon yomg‘irini yog‘diradigan bulutdir». Otlarning xosiyatlari, fazilatleri, yaxshi alomatleri hamda

⁷ТурсуновС., РашидовҚ.Бойсун.Академнашр нашриёти, 2011. – Б. 283-284.

⁸ТурсуновС., Рашидов Қ. Бойсун. Академнашр нашриёти, 2011. – Б. 283-284.

ularga kuygan nomlari haqida forslarda ko‘plab afsona va rivoyatlar saqlanib qolgan⁹.

Qadim ota-bobolarimiz ot o‘rgatuvchilarni Aspjallob ya’ni otni o‘ziga jalb etuvchi deb ataganlar. Otlarning zotini, yoshini, fe’l atvorini yaxshi biladigan odamlar Sinchi deb yuritilgan. Bizning kunlarimizga kelib, ot o‘rgatuvchilar trener deb atala boshladi. O‘zbek xalqining qadimiy an’anaviy sport o‘yinlaridan bo‘lmish ko‘pkari (uloq) juda qadim zamonlardan buyon bizgacha yetib keldi¹⁰. Ilgarilari kurash, ko‘pkarisiz sunnat to‘ylari o‘tkazilmagan. Aytishlaricha o‘ziga to‘q oilalar xaftalab ko‘pkari (ulok) o‘tkazar ekanlar. O‘zbekistonning hamma joylarida bo‘lganidek, Boysunda ham sovet hokimiyati yillarida ko‘pkari (uloq) o‘tkazish, mafkuraga to‘g‘ri kelmaydi deb qat’iyan man etildi. Otlar davlatga go‘sht rejasini bajarish baxonasida topshirildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, 1997 yil 14 yanvardagi O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi» qaroriga asosan ot sporti mashg‘ulot va musobaqalari jonlantirildi. Joylarda chavandozlik maktablar, klublar tashkil etilib, milliy ko‘pkari o‘yinlariga ruxsat etildi¹¹.

⁹ТурсуновС., РашидовҚ.Бойсун.Академнashr нашриёти, 2011. – Б. 283-284.

¹⁰ Dala yozuvlari. Sho‘rchi tumani Obodon mahallasi.2023-yil.

¹¹ТурсуновС., РашидовҚ.Бойсун.Академнashr нашриёти, 2011. – Б. 283-284.

1.2. Ko‘pkari o‘tkaziluvchi joylar

Qatag‘on urug‘iga mansub aholi eng zich yashagan qadimgi “Chorbog‘” hozirgi “Xatak” qishlog‘i daryo ikki sohili tepaliklari qir-adir yon bag‘ri bir oz tekisligi bo‘lgan joylarda ko‘pkari o‘tkazilganligi boisidan tarixiy nomlangan joylar mavjud ulardan bittasida hamon ko‘pkari musobaqasi o‘tkazilib turadi. Uning nomi “Ko‘pkari taxta” deb ataladi¹². Har yilgi “navro‘z xalq sayli, milliy o‘zbek kurashi musobaqasi, san‘at ko‘rigi ham uning janubiy qismi tekisliklarida o‘tkazilsa, Shimoliy qismi bo‘ylab cho‘zilib ketgan joylarda “Ko‘pkari” musobaqasi yugurish, voleybol musobaqalari navbatma-navbat o‘tkazib turiladi. Bu sayil xalqning eng sevimli sayli hisoblanadi. Xalq o‘z hisobidan sovrin tashlaydi. O‘zaro birikishib o‘zbek milliy taomi osh-palov katta-katta doshqozonlarda pishirilib sayl ahli va mehmonlarga ulashiladi. Bu joy besh olti km ga cho‘zilgan qishloqning o‘rtasida daryo sohilining shimoliy qismi adir tepaligida joylashgan.

Qishloqning yuqori qismi shimoliy tomon qir-adirlar ustida (hozirgi 47 maktab joylashgan hudud tepaligida) ham kichik ko‘pkari taxta ko‘pkari o‘tkaziluvchi joy mavjud. “Katta qo‘nush”, “Katta shayit”, “Katta Lalmida” ham ko‘pkari o‘tkazilgan. Ming uyli qatag‘on yashagan deb nom olgan bu qishloq aholisi XX asr o‘rtalarida cho‘llarni o‘zlashtirishga ko‘chirilishi natijasida ko‘chirilib, aholi demografik jihatdan 1980 yillarda juda siyraklashib qolgan edi. Hozirgi kunda esa yanada aholi ko‘payishi natijasida ota-bobolarining yurtini obod qilishga ko‘chib keluvchilar ko‘payib ketdi¹³.

“Katta qo‘nush¹⁴” (qo‘nish-to‘xtash)

Bu ko‘pkari joyi Kattasaroy shimoli - sharqiy qismi Mulla Ota qabristoni shimoliy qismida joylashgan, faqat janubiy qismi ochiq bo‘lgan adirlar orasidagi

¹² Dala yozuvlari. Sherobod tumani Xatak mahallasi.2023-yil.

¹³Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. “Fan va texnologiya” нашриёти, 2014. – Б. 327-333.

¹⁴Қўнуш-шевада, адабий тилда қўниш, тўхташ жойи
Чўкри-шевада, адабий тилда равоч

tekislik. Ba'zi to'y ko'pkarilari yaqin 10 yil ichida ham o'tkazildi. Usta Abdunabi Shahriddin ismli o'g'lidan bo'lgan nevaralari to'yida ko'pkari o'tkazgan edi.¹⁵

Chukrilik ko'pkari taxtasi

“Panjob” qishlog'i yaqinidagi Kulvat tog'i etagidagi adirliklar tekisligida joylashgan. U yerlarda aholi o'tmishda ko'pkari o'tkazib turishgan. Katta lalmi ko'pkari joyida bu hududlarda aholi zich yashagan davrlarda lalmi ekinlari o'rib olinib, yer bo'shagan vaqtlardagina ko'pkari o'tkazib turilgan. Katta shayit ko'pkari o'tkazilgan joyi. XX asr boshlarida bu hududda ko'pkari o'tkazilayotganda Abduvahhab ismli chavag'on-chavandozning bir qo'li tanasidan uzilib ketgach xalq bu yerda ko'pkari o'tkazishni to'xtatib qo'ygan. Abduvahhab chovog'on mo'jiza yuz berib bir qo'l bilan omon qoladi. Uning onasi o'g'lining qo'lini shamolda quritib olib kiyim solinadigan bo'xhada avaylab saqlab qo'yadi¹⁶.

Abduvahhab chavandoz vaqti soati yetib olamdan o'tganida qarindosh urug'lari quritilgan qo'lini uning jasadiga qo'shib kafanlab qabrga qo'yishgan. Joyning “Katta shayit” deb nomlanishi tarixini esa keksa G'ani bobo Qurbonov xotirlab shunday dedilar: “Bu joyning Sharqiy qismida ham Katta gaza tomonida ham bir qancha qabrlar bor. Sharqiy qismidagisini shayit deb atashadi. Shevada shayit so'zi adabiy tilda shahid deb ataladi. Janglarda halok bo'lgan kishini shahid bo'lib o'lganiga aytiladi”¹⁷.

Xullas, xalqning sevimli sport mashg'uloti bo'lmish ko'pkari bugungi yoshlar uchun ham sevimli mashg'ulot. Uni tiklash, ko'paytirish ot boqishga e'tiborni kuchaytirish zarur.

¹⁵ Dala yozuvlari. Sherobod tumani Xatak mahallasi.2023-yil.

¹⁶Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. “Fan va texnologiya” нашриёти, 2014. – Б. 327-333.

¹⁷ Dala yozuvlari. Sherobod tumani Xatak mahallasi.2023-yil.

O'zbek chorvachiligida qorako'lchilikka ayniqsa e'tibor katta bo'lgan, dumbali qo'ylar ham ko'p boqilgan. Qorako'l qo'ylari asosan tekisliklardagi yaylovlarda boqilgan. Kuzga yaqin hosil yig'ilgandan keyin podalar yaylovlardan qaytarilib qishlog'dagi maxsus ajratilgan qo'tonlarda saqlangan. Ular qishloq atrofidagi dalalarda boqilib, kechalari qo'tonlarda to'plangan. Keyingi bahorda qo'y-qo'zilar yana yaylovlarga chiqarilgan. Undan oldin qo'ylarning birinchi marta junini qirqishgan, keyin uzoq, yaylovlarga ko'chilgan. Qo'ylarning dumbali hisori nasllari ayniqsa Janubiy O'zbekistonda va Tojikistonda ko'proq bo'lgan. Ular ko'proq tog'li yaylovlarda kuzning o'rtalarigacha boqilgan, keyin vodiya haydab keltirilib, kuzgi junni qirqib va qochirib bo'lgach, qishloq atrofidagi o'tloqlarda va og'ilxonalarda boqilgan.

Ekstensiv xo'jalik sharoitida chorvachilikka e'tibor zo'r bo'lgan va uzoq, davr to'plangan amaliy tajribaga tayangan holda avloddan-avlodga yetib kelgan. Elda mashhur cho'ponlar avlodi mavjud bo'lgan. Kambag'al oilalar odatda 10-15 xo'jalikka birikib atoqli cho'ponlardan yollab tayinlangan va ularga yordamchi sifatida ikki-uch o'g'il bola ajratilgan. Cho'pon mehnati uchun shartnoma asosida qo'y, natura mahsulot yoki pul bilan hisoblashgan¹⁸.

Qo'ychilik asosan sotishga mo'ljallangan. Dasht tumanlarda qorako'lchilik rivojlangan va bozorlarga chiqarilgan. Qorako'l terilarini ilgari maxsus savdogarlar o'z vakillari orqali terib olganlar, barra go'shti shahar (qishloq) bozorlariga chiqarilgan. Qorako'l go'shtlari juda shirin bo'lganligi uchun ular tirik holda shahardagi qassoblarga keltirib sotilgan. Ularning junini qirqib ba'zan shahardagi o'zbeklarga og'ilxonada boqishga yoki maxsus cho'ponlarni yollab topshirganlar. Podalarni Ko'hitang va Bobotog' tog' tizmalaridagi yozgi yaylovlarda boqib avgust oyidan shahar bozoriga chiqara boshlaganlar. Katta boylar ham molfurushlik qilganlar.

¹⁸Турсунов С. Сурхондарё этнографияси. – Т.: Tafakkur, 2020. – Б. 27-39.

Qo‘y juni ham bozorga chiqarilgan. Undan ayrim xo‘jaliklarda kigiz, palas, gilam, qop va xurjun ishlab chiqarilgan va qisman savdo qilingan. Qo‘y terisidan po‘stin va telpak, shuningdek to‘shama, mesh, sanoat va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlari yasalgan.

Ko‘pchilik o‘zbeklar echki go‘shhini «sovuqlik» deb iste‘mol qilganlar. Uning junidan xo‘jalikda zarur arqon va ip eshilgan, terisidan poyabzal tikilgan, mesh hamda sanoch ishlab chiqilgan. Keyingi yillarda angor echkilarini parvarish qilish avj oladi. Bunday echkilarning juni yuqori sifatli bo‘lib, ulardan ajoyib gilamlar va tivit ro‘mollar to‘qilgan¹⁹.

Dehqonchilikda yirik shoxli mollardan eng zarur ish kuchi sifatida ho‘kizlarni alohida parvarish qilganlar. Qo‘ychilikdagidek, yirik shoxli mollarni ham maxsus o‘troq dehqonlar xarid qilgan. Surxon vohasida ko‘proq qo‘y go‘shhini iste‘mol qilganlar. To‘y-ma‘rakalarda buzoq va g‘unajinlar so‘yilgan²⁰.

O‘zbekistonda qadimgi davrlardan yilqichilik ham ancha rivojlangan. Afsonaviy otlar xalq ijodida, doston va rivoyatlarda, shoirlar va baxshilar tilida kuylangan. Otlar minish, aravaga qo‘shish hamda yuk tashish uchun parvarish qilingan. O‘zbeklarda ko‘chmanchi elatlardagidek yilqilar uyuri, ya‘ni biyalar to‘dasi bo‘lmagan, ammo, yuqori sifatli ot navlariga qiziqish zo‘r bo‘lgan. Hozirgacha saqlanib kelgan afsonaviy otlar nafaqat rivoyatlarda, toponimik (masalan, Xazorasp) va diniy e‘tiqodlarda (totemistik tasavvurlarda) ham namoyon bo‘lgan. Sharqiy Buxorodagi ayrim qabilalarda (loqay, marka va x. k) uyurli otlar saqlangan. Ko‘pincha otlar Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va qo‘shni o‘lkalarda sotilgan. Mahalliy aholi ayniqsa qorabayir, loqay kabi navlarni parvarish qilgan.

Dasht va sahro zonasida yashovchi o‘zbeklar tuyachilik bilan shug‘ullanganlar. Tuyalardan asosan yuk tashishda, ba‘zan xo‘jalik ishlarida,

¹⁹Турсунов С. Сурхондарё этнографияси. – Т.: Tafakkur , 2020. – Б. 27-39.

²⁰ Турсунов С., Пардаев Т., Махмадиёрова Н. Сурхондарё – этнографик макон. — Т.: Akademnashr, 2012. – 232 б.;

ko‘proq karvon savdosida foydalanilgan, Tuyalar odatda dashtda cho‘ponsiz boqilgan, uncha parvarish talab qilinmaydigan mol. Undan tuya egasi jun, sut va go‘sh t olgan. O‘zbekistonning janubida asosan bir o‘rkachli, shimoliy rayonlarida esa ikki o‘rkachli nor tuyalar parvarish qilingan.²¹

O‘troq ziroatchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘zbeklarda chorvachilik uncha rivojlanmagan, chunki sug‘orma yer tanqisligidan xashak yetmagan. Mahalliy dehqonlar oz sonli sigir, echki va qo‘yni sut, qatiq va go‘sh uchun, ot va eshakni minish va yuk tashish uchun parvarish qilganlar. Ot-arava va ho‘kizlar ko‘proq boy-baquvvat oilalarda bo‘lgan. Ishchi hayvonlar ham asosan boylarda bo‘lib kambag‘al dexqonlar ulardan korandaga olib ishlatganlar. O‘troq aholi o‘z mollari va qo‘y-echkilarini jamoa bo‘lib, maxsus yollangan cho‘ponlarga boqtirgan yoki og‘ilxonada saqlab boqqanlar. Kambag‘al oilalarda minish, yuk tashish va boshqa xo‘jalik ishlarida eshak yoki xachirdan foydalanilgan.²²

Parrandachilik o‘zbeklarda keng tarqalmagan. Ammo ko‘p oilalarda ular go‘sh t va tuxum uchun saqlangan. Tovuq go‘sh tli, saryog‘da pishirilgan palov tansiq taomlardan hisoblangan.

Hozirgi davrda an‘anaviy chorva xo‘jaliklari jamoa va davlat xo‘jaliklarida birlashtirilgan va zamonaviy texnika va yem-xashak bilan ta‘minlangan. Yakka xo‘jaliklarda qo‘y-echki, parranda va mol parvarish qilinadi. Shaharda yem-xashak yetmasligidan chorva faqat ayrim xo‘jaliklarda, shaxsiy hovlilarda mavjud. Ayniqsa tog‘ etagi va dasht tumanlaridagi yirik jamoa xo‘jaliklarida chorvadorlik muhim soha hisoblanadi va unga e‘tibor ham katta.

²¹Tursunov S. Suxondarë etnografiyasi. – T.: Tafakkur, 2020. – B. 27-39.

²² Tursunov S., Parдаев T., Махмадиёрова Н. Сухондарë – этнографик макон. — T.: Akademnashr, 2012. – 232 б.; Tursunov S. Suxondarë etnografiyasi. – T.: Tafakkur, 2020. – 208 б.; Tursunov S., Қобулов Э. Сухондарë тарихи. – T.: Tafakkur, 2020. – 258 б.; Tursunov S., Parдаев T., Пайғамов А., Нарзуллаева Н. Сухон воҳаси моддий маданият тарихи. – T.: Muharrir, 2013. — 324 б.; Tursunov S., Эшбоев Қ. Шўрчи тарихи ва этнографиеси. — T.: Fan va texnologiya, 2013. – 320 б.; Tursunov S., Рашидов Қ. Бойсун. — T.: Akademnashr, 2011. – 430 б.; Tursunov S., Tursunov A., Тоғаева М. Шеробод тарихидан лавхалар. — T.: Yangi nashr, 2014. — 356 б.; Tursunov S., Тўхтаев А., Аннаева З. Жарқўрғон тарихидан лавхалар. — T.: Yangi nashr, 2019. — 315 б.

Paxtakor tumanlarda ham chorvachilikka imkoniyati boricha e'tibor berish talab etiladi²³.

Surxondaryo viloyatida qorako'lchilik ancha rivojlangan. Bu yerda maxsus jamoa xo'jaliklari mavjud. Surxondaryo viloyatdagi ba'zi jamoa xo'jaliklarida chorvachilik an'analari saqlangan. Ular qo'shni Turkmanistonva Tojikiston yaylovlaridan ham foydalanadilar. Echkichilik butun viloyatda tarqalgan.

O'zbekistonda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar bu yerda ikki ming yillar muqaddam keng rivojlangan hunarmandchilik mavjud ekanligini isbotladi. Bu davrda sinfiy jamiyatlar paydo bo'lib, yirik mehnat taqsimoti negizida hunarmandchilik mustaqil soha bo'lib ajralib chiqqan. Oqibatda shaharlarning o'sishi, savdo-sotiqning rivojlanishi ro'y beradi. Butun mintaqada yirik shaharlar nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy, balki siyosiy va madaniy markazlarga aylana boshlagan.

²³Турсунов С. Сурхондарё этнографияси. – Т.: Tafakkur , 2020. – Б. 27-39.

I bob bo'yicha xulosalar.

Chavandozlar yoshligidan otdan qo'rqmaslikka, otda erkin yurishga, ot afzallarini o'z o'rnida qo'yib foydalanishga, otda chapdastlik, chaqqonlik, muovzanat saqlashga, borg'uni oyoq taqimi ostiga olishga, ko'pkarida g'irromlik qilmaslikka, raqib chavandozga shikast yetkazmaslikka, qamchi tortib yubormaslikka, halollikka o'rgatib boriladi.

Chavandozlik o'ziga xos bir san'at bo'lgani kabi yaxshi otlarni yetishtirish, ko'paytirish, ularni boqa bilish, tarbiyalay olish ham bundan qolishmaydigan san'atdir. Yaxshi otlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi va kamolga yetmaydi.

Surxon vohasi chavandozlari vatan obro'yi, or-nomusi, vijdoni hamda mustaqilligi uchun doim chaqqonlik, abjirlik, hushyorlik va kuchlilikni o'zlarida aks ettirganlar. To'y ko'pkarilarida yurt, qishloq, ovul or-nomusi uchun kuch sinashib, aql-tafakkur va bilak kuchlarini ko'rsatgan.

Ko'pkari (uloq) o'yini chavandozlikni oliy darajadagi milliy o'yini bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodga ota-bobolarmizdan meros bo'lib qolgan milliy o'yindir.

Surxon vohasi qadimdan o'zbek davlatchiligining mustahkam rivojlanishida, chet el bosqinchilariga qarshi kurashda, ichki nizo va ziddiyatlarni bartaraf etishda, mard, jasur qahramonlarni yetishtirib chiqargan yurt bo'lishi bilan bir qatorda, polvonlar, chavandozlar vatani sifatida jahonga tanildi.

O'zbek xalq maqolalarining birida ot yigitning qanotidir, deyilgan. Ot olis safarlarda, jangu-jadallarda-ya'ni Vatanni bosqinchi dushmanlardan himoya etishda yigitning hamroxi, hamkori, chinakkam do'sti bo'lgan. Tulporlarning yurtib yurishlari, yo'rg'alab yurishlari, yollarini baxor shabbodasida xilpiratib chopishlari, ko'kka sapchib ikki oyoqda turishlari kishiga zavq keltiradi.

Qadimiy tarixiy qadamjolar hisoblangan Qorabog', Maslahat, To'g'anoq, Sichqon, Shayit, Qo'y-qirqilgan, Qo'y-To'rabek, Xonaqa tepaliklari arxeolog olimlar tomonidan o'rganilib, xalq og'zaki ijodiyotda rivoyat sifatida asrlardan-asrlarga o'tib kelayotgan fikrlar tarixiy jihatdan ilmiy tahlil etildi

Surxon hududidan topilgan arxeologik materiallar, qoyatoshlarga o'yib va chizib ishlangan rasmlar qal'a va saroy devorlarini bezagan devoriy tasvirlar qo'lyozma kitoblarga, ishlangan mo'jaz rasmlar yozma manbalarda keltirilgan qaydlar, bu hududda dorvozlik san'ati qadimdan rivojlanganligini ko'rsatadi. Xususan, Zarautsoydan topilgan qoyatosh rasmlarida ov manzaralari, chavandozlar, ovdan keyingi shodiyonalik, hayvon va qushlarni tasviri, otda chavandozlik mahoratini namoyish etish va boshqa lavhalar aks ettirilgan. Tuproq qal'a, Jarqo'ton, Bolaliktepa, Xolchayon, Dalvarzintepadan masharabozlarning sopol haykalchalari topilgan devoriy rasmlarda masharabozlar va turli niqoblar aks ettirilgan.

Otlar haqida juda ko'p afsona va rivoyatlar bor. Alpomishning Boychibor Go'ro'g'li va Avazxonning G'irot tulporlari haqida dostonlarda madx etilgan. Insonga otday mexribon, sodiq jonivor bo'lmaydi.

Qadim ota-bobolarimiz ot o'rgatuvchilarni Aspjallob ya'ni otni o'ziga jalb etuvchi deb ataganlar. Otlarning zotini, yoshini, fe'l atvorini yaxshi biladigan odamlar Sinchi deb yuritilgan.

O'zbek xalqining qadimiy an'anaviy sport o'yinlaridan bo'lmish ko'pkari (uloq) juda qadim zamonlardan buyon bizgacha yetib keldi. Ilgarilari kurash, ko'pkarisiz sunnat to'ylari o'tkazilmagan. Aytishlaricha o'ziga to'q oilalar xaftalab ko'pkari (ulok) o'tkazar ekanlar.

O'zbekistonning hamma joylarida bo'lganidek, Boysunda ham sovet hokimiyati yillarida ko'pkari (uloq) o'tkazish, mafkuraga to'g'ri kelmaydi deb qat'iyon man etildi. Otlar davlatga go'sht rejasini bajarish baxonasida topshirildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, 1997 yil 14 yanvardagi O'zbekiston respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi» qaroriga asosan ot sporti mashg'ulot va musobaqalari jonlantirildi.

Xullas, xalqning sevimli sport mashg'uloti bo'lmish ko'pkari bugungi yoshlar uchun ham sevimli mashg'ulot. Uni tiklash, ko'paytirish ot boqishga e'tiborni kuchaytirish zarur.

II BOB. O'ZBEK ETNOSPORDIDA SURXON VOHASI

CHAVANDOZLARI

2.1. O‘zbek etnosportida Surxon vohasi chavandozlari

Ko‘pkari (uloq) o‘yini chavandozlikni oliy darajadagi milliy o‘yini bo‘lib, o‘sib kelayotgan yosh avlodga ota-bobolarmizdan meros bo‘lib, qolgan milliy o‘yinlarni o‘rgatishdan iboratdir. Yurtimizda otchilikni rivojlantirish ham muxim vazifamizdan biridir. Hech qachon, hech bir zamonda va hech bir mamlakatda sportchi o‘z-o‘zidan tanilmaydi, o‘z-o‘zidan dovrug‘ qozonib, chempion ham bo‘lmaydi. Ustozlarga ko‘p narsa bog‘liq. Boysunlik chopag‘onlarning bobokalonlaridan biri XX asr boshlarida yashab o‘tgan dovrug‘li Sattor chopag‘on Ochildiyev Boysun begi Mirzo Salimbek (1902-1905) ni shaxsiy chopag‘oni bo‘lgan. Dovrug‘li chopag‘on Sovet hokimiyatining qatag‘onlik siyosati qurboni bo‘ldi²⁴.

Sattor Chopag‘on G‘uzorda o‘tkazilgan Navro‘z bayrami saylida (Ko‘pkari-uloq) unga teng topilmagan. Shunda G‘uzor begi qoyil qolib: «Bundan keyin kimning xotini o‘g‘il tug‘sa, otini Sattor qo‘yinglar degan ekan. Bu gap hozirda ham chopag‘onlar orasida yuradi». 1934-yilda Boysunda bir saylda bir yarim sentner g‘allani qopga solib, og‘zini boylaydilar-da, qaysi chopag‘on ot ustida turib, shu qopni bir qo‘llab ko‘tarib, yuz mertga olib borsa o‘ziniki deb e‘lon qilinadi. Shunda Sattor chopag‘on birinchi intilishida g‘alabaga erishganligi haqida xalqda gap yuradi. Boysunlik chopag‘onlardan yana biri dovrug‘li Xoli chopag‘on Mamayusupovdir²⁵. U «Xomkon» da tug‘ulib, Chilonzor qishlog‘ida voyaga yetdi. 18-yosharligidan chopag‘onlik qildi. Dovrug‘li chopag‘onlardan. Ot sporti bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi chempioni. Agar sportchi chindan ham jismonan baquvvat, epchil, shiddatli va qaytmas bo‘lsa har qanday raqibini yengadi. Bunday xislatlarga ega bo‘lgan Xoli chopag‘on ko‘plab sovrinlarni qo‘lga kiritdi.

²⁴ТурсуновС., РашидовҚ.Бойсун.Академнашр нашриёти, 2011. – Б. 284-286.

²⁵ Dala yozuvlari. Sherobod tumani Xomkon mahallasi.2023-yil.

Saksondan oshib, bu yorug' olamdan ko'z yumgan qaxramonimizni xotirasiga bag'ishlanib 2006-2008 yillar xotira turneri o'tkazildi. Tuman hokimining tashabbusi bilan o'tkazilgan bu xotira turneri chopag'onni ona qishlog'i Chilonzorda uning tug'ilgan kunida o'tkazib kelinmoqda²⁶.

Boysunda dovrug'i yetti iqlimga ketgan 1947-yilda tug'ilgan Fayzi chopag'on Norqobilov bor. Boysun rayonidagi Saroytosh qishlog'ida tug'ilgan. Qiyakamar qishlog'ida yashaydi. Otasi Norqobil chopag'on, bobosi Ibroxim chopag'on, tog'asi Islomqul va Xursan chopag'onlari bari yetti pushti chopag'on bo'lib o'tgan. U Saroytoshlik Xoliyor Tillayev va Normamat Toshboyevlarni o'zining ustози deb biladi. Ulardan chavandozlikni sir-asrorini o'rgandi. Fayzi chopag'on Norqobilov 17 yoshidan chopag'onlik qilib, 12 yoshidan ot choptirgan. Toshkent, Jizzax, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari hamda qo'shni Tojikiston, Turkmaniston Respublikasiga borib, ot sporti musobaqalarida qatnashdi va faxrli o'rinlarni olib keldi²⁷.

Omadi kelgan chavandozimiz oltmish to'rtinchi yildan sakson to'qqizinchi yilgacha yigirma olti yil, sobiq Ittifoq birinchiligi bellashuvlarida O'zbekiston sharafini ximoya qildi, or talashdi. Bir emas besh bor «Suyur papokda» (Ozarbayjoncha sport o'yini) sakkiz bor chempion bo'ldi. Yana terma komanda a'zosi bo'lishdek sharaflı ish O'zbekiston terma jamoa sarkorligi esa yana bir Boysunlik alp chopag'on Qurbonmurod Xolmurodovga topshirilgandi. Rastov (1979), Olma ota (1980), shuningdek Dushanbe, Bishkek, Bokuda bo'lib o'tgan butunittifoq ot sporti musobaqalarida O'zbekistonni sharafini ximoya qildi va komandani birinchi o'rinni olishda o'zining munosib xissasini qo'shdi. Tojikiston Respublikasi Qabadion rayonidagi bir to'yda 11 bosh ot ajratganligini, Turkmaniston Respublikasi Marv rayonidagi bir to'yda esa 13 bosh xo'kkiz (qoramol) ajratganligini faxr bilan eslaydi²⁸.

²⁶ Dala yozuvlari. Sherobod tumani Xomkon mahallasi.2023-yil.

²⁷ТурсуновС., РашидовҚ.Бойсун.Академнашр нашриёти, 2011. – Б. 284-286.

²⁸ТурсуновС., РашидовҚ.Бойсун.Академнашр нашриёти, 2011. – Б. 284-286.

O‘zbekiston SSSR Ministrlar Soveti xuzuridagi fizkul’tura va sport komitetining 1980-yil 9 oktyabrdagi qarori bilan unga o‘zbek milliy uloq bo‘yicha «O‘zbekiston respublikasi sport masteri» unvoni berildi (guvoxnoma №129). Ko‘pkari (uloq), chovg‘on-ot ustidan turib xokkey va bosketbol o‘yini hamda ozarbayjoncha ot ustida bosketbol «Suyur papok» o‘yinlarida eng zo‘r sanalgan Rossiya, Ozarbayjon komandasi emas, balki o‘zbek jamoasini g‘olib kelishida Boysunlik ikki chopag‘on komanda sardori Qurbonmurod Xolmurodov va Fayzi Norqobilovlarni kurash olib borishi tarix varaqlarida yozib qoldirildi. Nurullo, Chori, Yusuf, G‘ayrat Ibragimovlar, shuningdek Shoberdi Gundayev kabi moxir, chapdast chavandozlar uning shogirdi hisoblanadi²⁹.

Boysun mardlik, jasurlik timsoli sifatida o‘zining chavandozlari bilan faxrlanadi³⁰. Alpomish avlodlari bo‘lgan chavandozlar vatan obro‘yi, or-nomusi, vijdoni hamda mustaqilligi uchun doim chaqqonlik, abjirlik, hushyorlik va kuchlilikni o‘zlarida aks ettirganlar. To‘y ko‘pkarilarida yurt, qishloq, ovul or-nomusi uchun kuch sinashib, aql-tafakkur va bilak kuchlarini ko‘rsatgan quyidagi mashhur chavandozlar haqida ma‘lumot taqdim etishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Ziyodulla Norliiyev, Erniyoz Norliiyev (Chilonzor), Sattor chopag‘on Ochildiyev (Chorchinor), Ibroxim Chopag‘on (Saroytosh), Norqobil Ibragimov(Saroytosh), Islomqul Xo‘jaqulov(Saroytosh), Xo‘jamshukur Donayev (Kofrun), Toshboy Chopag‘on(Qayroq), Po‘lat Chopag‘on (Qayroq), Normamat Toshboyev (Saroytosh), Xo‘jamurod Chopag‘on (Padang), Xolmo‘min Chopag‘on (Padang), Xoliyor Tillayev (Saroytosh), Bo‘ta Chopag‘on (Qizilnavur), Berdiqu chopag‘on (Gaza, Machay), G‘ani Chopag‘on (Qizilnavur), Omonqul Chopag‘on (Sho‘rob), Poyonqul Chopag‘on (Sho‘rob), Norqobil Aliqulov (Kampirchorbog‘), Shoyonqul Chopag‘on (Sho‘rob), Norov Mamasola (Tangimush), Bo‘ta Chopag‘on (Sho‘rob), Xoliq Mamasolayev (Tangimush), Xoli Chopag‘on Mamayusupov

²⁹ТурсуновС., РашидовҚ.Бойсун.Академнашр нашриёти, 2011. – Б. 284-286.

³⁰ Dala yozuvlari. Sherobod tumani Xomkon mahallasi.2023-yil.

(Chilonzor, Xomkon, Sayrob), Saylov Mustafoqulov (Gaza, Machay), Saman Chopag'on (Chilonzor, Xomkon, Sayrob), Xursan Isomov (Saroytosh), Abraqul Toshanov (Tangimush), Fayzullo Chopag'on (Xojadiyak), Marka Toshanov (Tangimush), Xayitmamat Chopag'on (Xojadiyak), Xayitali Toshanov (Tangimush), Fayzi Norqobilov (Qiyakamar, Saroytosh), Ko'char Choriyev (Tangimush), Shaydullo Choriyev (Tangimush), Alimurod Xo'jamshukurov (Kofrun), Qobil Chopag'on (Kofrun), Qo'ziboy Chopag'on (lakabi burgut) (Kampirchorbog'), G'affor Sariyev (Kofrun), Mamatmurod Chopag'on (Tillokamar), Xolmo'min Shayqulov (Rabot), Chori Chopag'on (Rabot), Ro'zi Chopag'on (Darband), Xushmamat Gulbayev (Tillokamar), Abdumajit Norqobilov (Kampirchorbog'), Nurillo Chopag'on (Panjob), Luqboy Chopag'on (Panjob), Abraql Chopag'on (Inkabod), Abraxmat Chopag'on (Sho'rob), Toshboy Chopag'on (Saroytosh), Narzilla Omonov (Saroytosh), Karim Chopag'on (Omonxona), Normamat Chopag'on (Pulhokim), Abdurayim Chopag'on (Pulhokim), Qodir Qoraqulov (Qizilnavur), Abdurayim Chopag'on (Qizilnavur), Bo'ri Xolmo'minov (Padang), Jullon Chopag'on (Machay), Chori Chopag'on (To'da), Mammadi Chopag'on (Inkabod), Polvonxon Chopag'on (Qayroq), A'zamxon Chopag'on (Qayroq), Eshonxon Chopag'on (Qayroq), Norxol Chopag'on (Chilonzor, Sayrob), Muzaffar Chopag'on (Chilonzor, Sayrob), Tashat Xolmo'minov (Padang), Karim Zoirov (Rabot), Nurali Chopag'on (Tillokamar), Chori Ibragimov (Dashtig'oz), Shodmon Eshmurodov (Tillokamar), Yusuf Ibragimov (Dashtig'oz), Abduvoxid Chopag'on (Tillokamar), Jo'ra Xolmo'minov (Padang), Xolto'ra Tillayev (Qiyakamar), Xolto'ra Xurramov (Padang), Toji Xolmo'minov (Padang), Mo'min Xolmo'minov (Padang), Qurbonmurod Xolmurodov (Inkabod, Ketman), Axmad Murodov (Tillokamar), Chori Chopag'on (Qizil To'lqin, Omonxona), Bo'ri Chopag'on (Kofrun), Rajab Chopag'on (Kofrun), Nurillo Ibragimov (Qiyakamar), Chori Chopag'on (Qiyakamar), Shoberdi Gundayev (Dashtig'oz), Shapaat Chopag'on (Tangimush), Qosim Chopag'on (Sho'rob), Nurali Tillayev (Dashtig'oz), Xo'jaql Chopag'on (Qizil To'lqin, Omonxona), Parda Chopag'on (Qizil To'lqin, Omonxona), Xolmurod

Tillayev (Dashtig'oz), Asrorxon Botirov (Qayroq), Norqobil Boboniyozov (Qayroq), Sa'dullaxon Chopag'on (Qayroq), Ergash Gulboyev (Tillokamar), Qudratxon Ubayov (Tangimush), Voxid Tovashov (Tillokamar), Norqul Toshboyev (Saroytosh), Qayum Nazarov (Tillokamar), Eshpo'lat Raximov (Tangimush), Nurali Avazov (Tillokamar), Xoliq Qurbonov (Tangimush), Amirqul Chopag'on (Machay), Axmad Toshanov (Tangimush), Ne'mat Chopag'on (Qizilnavur), Nodir Chopag'on (Qizilnavur), Fayziboy Choriyev (Tangimush), Xurram Chopag'on (Xojadiyak), Raxmon Chopag'on (Xojadiyak), Mardon Chopag'on (Tangimush), Panji Choriyev (Tangimush), Abdullaxon Chopag'on (Tangimush), Shokir Choriyev (Tangimush), Ro'zi Chopag'on (Sho'rob), Bo'ron Norqobilov (Dashtig'oz), G'ayrat Norqobilov (Qiyakamar), Alisher Gundayev (Dashtig'oz), Yusuf Ibragimov (Dashtig'oz, Saroytosh), Baxtiyor Mamasolayev Turdiboy o'g'li (Tangimush)³¹.

Boysun tumani Ko'ktepa mahallasida o'zbek qo'ng'irotlari, qatag'on, shu jumladan Chig'atoy va toqchilar yashashadi. Mahallada 90 yoshdan oshgan erkaklar, 100 yoshdan oshgan ayollar ko'p. Ayollar asosan tikuvchilik, kashtachilik, gilamchilik bilan shug'ullansa, erkaklar dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanadi.

Xoliq Raxmonov cho'pon bo'lgan, yoshligidan chavandoz-ko'pkarida qatnashgan, qo'sh xaydagan. Shu bilan birga do'mbirani sayratgan. Uning xotini Yusupova Xadicha bibi xalq tabobati bilan shug'ullanadi. Ko'plab kasalliklarni davolaydi. Shu bilan birga «Xo'sh-xo'sh», «Turay-turay», «Chiray-chiray» hamda «Alla» xalq ashulalarini yaxshi aytadi. Xoliq Raxmonov zardolidan tayyorlangan do'mbirasi (hozirda saqlangan) bilan «Alla», «Yo ramazon», «Onam», «Do'mbiram» kuylarini maxorat bilan ijro etgan³².

Qizilnavr qishlog'i – Mazkur qishloq Machaydaryoning chap tomonida joylashgan bo'lib asosiy aholisini tog'chi-qatag'onlar tashkil etib, xo'jaligi asosan

³¹ТурсуновС., РашидовҚ.Бойсун.Академнашг нашриёти, 2011. – Б. 284-286.

³²ТурсуновС., РашидовҚ.Бойсун.Академнашг нашриёти, 2011. – Б. 213.

lalmikor dehqonchilik va chorvachilikni tashkil etadi. Qizilnavrda 200 gektarga yaqin qadimdan ekilib kelinadigan lalmikor yerlar mavjud bo'lib, bugungi kunda bu yerda shirkat xo'jaligining o'rnida fermerlar uyushmasi tashkil etilgan. Daryoning chap tarafida Arpapoyada 60 gektarga yaqin, Kengdalaga borishda Mobirlida 50-60 gektarga yaqin o'rmonli hududda kartoshka, Kengdalada o'rmonchilik xo'jaligi bo'lib 1930-yillarda tashkil etilgan. Qishloqda asosan chorvachilik rivojlanib, dehqonchilikda ham lalmikor yerlarga arpa va bug'doy ekilganligi bois bog'dorchilik unchalik rivojlanmagan. Arpapoya obikor bo'lib, buloqlar suvi bilan sug'orilib dehqonchilik qilingan. Chorvachilikda asosan ot (yilqi) asosiy tarmoq hisoblanib, shuningdek, echki, ko'proq qo'y va qoramol boqilib, chorva ko'pincha O'rikli va Jabayak kabi katta-katta laylovlarda rivojlangan. Otlar ko'pkaridan oldin 40 kun boqilib, 40 kun sovutilib, usta chavandozlar ko'pkariga safarbar etiladi. Hunarmandchilikda omoch, qo'sh, egarsozlik, zargar ustalar, xalaji, charh yasovchi ustalar bo'lgan. Ayollar turli xil paxtadan va jundan xojari, chumchuqko'z, taqir kabi turli tuman nomdagi gilamlar to'qiydilar³³.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, o'tmishda o'troq o'zbeklar nafaqat qo'shni ko'chmanchi elatlar mahsulotini iste'mol (xarid) qiluvchilar, balki ular uchun zarur hunarmandchilik mahsulotlarini yetkazib beruvchilar sifatida ham namoyon bo'lgan. Shuning uchun mahalliy ustalar ko'plab teri va jundan, yog'och va metallardan, paxta va ipakdan turli buyumlar, kiyim-kechaklarni ishlab chiqib bozorlarda sotganlar. O'rta asr hunarmandlarining yana bir xususiyati (ayrim odatlari bizgacha yetib kelgan) ularning muayyan ijtimoiy tashkilotlarga ega bo'lishida edi. Bu o'ziga xos jamoachilik an'analariga tayangan maxsus uyushmalarga biri-kish edi. Asli mazkur uyushmalar hunarmandchilik texnikasi va ishlab chiqarish xarakteri bilan bog'liq va o'z hamkasblari manfaatini qo'riqlash maqsadida tashkil topgan tashkilotlardir.³⁴

³³ТурсуновС., РашидовҚ.Бойсун.Академнашр нашриёти, 2011. – Б. 273.

³⁴Турсунов С. Сурхондарё этнографияси. – Т.: Tafakkur , 2020. – Б. 27-39.

O'zbek xunarmandchiligining yana bir xususiyati uning ko'p sohalarining bevosita uy-ro'zg'or xo'jaligi bilan bog'liqligi edi. Ko'p hunarmandlar asosiy kasbidan tashqari ayniqsa qishloq sharoitida (ba'zan shaharda ham) dehqonchilik, bog'dorchilik va sabzavotchilik bilan ham shug'ullanib kelganlar. Ularning ko'pchilik qismi o'z mahsulotlarini yaqin bozorga chiqaribgina qolmay, ishlab chiqilgan mahsulotiga qarab natura bilan ham haq olganlar (g'alla yoki mol bilan). Bunday holat qishloq jamoachiligi an'analari bilan bog'liq bo'lib, dastavval hamqishloqlar ehtiyojlariga bo'ysungan. Uy hunarmandchiligida ip yigirish, to'qish, kigiz bosish kabi kasblar bilan shug'ullanilgan. To'qimachilikda gilam va palos birinchi galda turar edi.

Hunarmanchilik ravnaqi ishlab chiqaruvchi kuchlar va tovar-pul munosabatlarining rivojiga, natural rentaning pul bilan almashinuviga borliq. Xonliklardan mollar karvonlar orqali Rossiyaga jo'natilgan. Ish quollarining oddiyliigi, texnikaviy jihatdan qoloqligiga qaramay o'zbek xunarmandchiligining ko'p sohaları nihoyatda yuksak san'at namunalari yaratgan ajoyib amaliy kasb-hunar sifatida tanilgan.

Hunarmandchilikning qadimiy davrlardan eng keng tarqalgan sohasi temirchilik hisoblangan. Bu sohaning rivoji dastavval mahalliy xom ashyoga bog'liq, bo'lgan. O'zbekiston o'zining yer qazilma boyliklari, oltin, kumush, mis, temir kabilar bilan ilgaridan mashhur. 1913-yilda mahalliy hunarmandlar 72 foiz metall buyumlar ishlab chiqarganlar. Metall ishlab chiqarish 19 ta kasbga bo'lingan.

2.2. Surxon vohasi xo‘jalik faoliyatida yilqichilikning o‘rni

Qadim davrlardan yilqichilik ham ancha rivojlangan. Afsonaviy otlar xalq ijodida, doston va rivoyatlarda, shoirlar va baxshilar tilida kuylangan. Otlarminish, aravagaqo‘shishamda yuk tashish uchun parvarish qilingan. Sharqiy Buxorobekliklaridako‘chmanchi elatlardagidek yilqilaruyuri, ya‘nibiyalarto‘dasibo‘lmagan, ammo, yuqorisifatli ot navlariga qiziqish zo‘r bo‘lgan (loqay, markavax.k.) uyurli otlarsaqlangan. Mahalliy aholi ayniqsa, qorabayir, loqay kabinavlarini parvarish qilgan³⁵.

Xomkon qishlog‘ining barcha qoraqalpoq urug‘lari azal-azaldan yilqichilik bilan shug‘ullanib kelishgan³⁶. Yilqichilikda ham xuddi chorva mollarini yoshiga, jinsiga qarab nomlaganidek, yilqilarni ham yoshiga, jinsiga va rangiga qarab nomlashadi hamda tavsiflashadi. Jumladan: endi tug‘ilgani *qulun*, so‘ngra *toy* deyiladi. Ikki yoshdan uch yoshga qadar *g‘unon*, uch yoshdan to‘rt yoshga qadar *do‘nan* deb nomlanadi. To‘rt yoshdan oshgandan so‘ng urg‘ochisi *baytal*, erkagi *ayg‘ir* deyiladi.

Xomkon qishlog‘ida ot mehr bilan parvarishlanadi. Xalq orasida bir ibora bor: “Otni va libosni yaxshi tutgil, toki ot va libos ham seni yaxshi tutgay”. Otni baquvvat bo‘lishi uchun *shirajov* bilan *arpa* berib boqishadi. Shirajov bug‘doyning etga to‘lgan, ammo qotmagan, ya‘ni xamirlashgan payti. Har bir boquvdagi otga bir kunda 4 kg dan arpa berib uni asta-sekin ko‘paytirib borgan, ya‘ni 25 kg gacha arpa berilgan³⁷.

Shuningdek, qishloqda otning rangiga va tanasidagi a‘zolariga qarab otning yaxshi yoki yomon xislatlarini aytib berishadi. Yaxshi, ko‘rkam otni *aston baytari* deyishadi. Uning tishi nozik, payvasta tutashgan va oq bo‘ladi. Ko‘z kiprigi qora, pastki labi uzunroq va keng, manglayi keng, chakkasi ochiq, qulog‘i uzun va quloqlarining orasi ochiq, bo‘yni to‘g‘ri va bo‘ynining tubi yo‘g‘on, orqasi

³⁵Файзуллаева М., Кичкилов Ш. Хомкон. Тошкент, 2022. – Б. 70-73.

³⁶ Dala yozuvlari. Sherobod tumani Xomkon mahallasi. 2023-yil.

³⁷Файзуллаева М., Кичкилов Ш. Хомкон. Тошкент, 2022. – Б. 70-73.

baland, bo'g'ini qisqa, siynasi keng, qo'l oyog'ining orasi ochiq. Quyruq'i qattiq va uzun quyruq'ining kokili nozik va qisqa, quyruq'ining o'siq sag'risi keng, orqasi qisqa, ikki sonining orasi go'sht bilan to'la va bir-biriga yopishib turgan bo'ladi. Agar bu alomatlar har bir otda bo'lsa yaxshi ot bo'ladi. Bunday otlar yo'l yurganda hushyordir. Shuningdek, unga mingan kishi harakat qilsa uning harakatidan ogoh bo'ladi.

Bundan tashqari, har bir zotning bir hunari bo'ladi, deyishadi. Eng yaxshi rangli ot *to'riq* va *xurmorang ot*. *Jiyronot* zaifroq bo'ladi. *Samanot*, ya'ni sariq-qizil ot bag'oyat yaxshi bo'ladi. Agar *saman otning* yuzida nuqta-nuqtasi bo'lsa va u qora bo'lsa, manglayi go'shtli, sonining orasi, ko'zi, labi qora bo'lsa, u eng yaxshi saman ot hisoblanib, kam uchraydi³⁸. Ko'k rangdagi ot ko'pincha badf'yel bo'ladi. Xususan, ot ko'zining keti, tuyog'i oq bo'lsa badxulq bo'ladi. Kulrang tusli otning oyoqlari oq bo'lsa, bu ot ham yaxshi ot hisoblangan³⁹.

Xomkon qishlog'i tog'li hudud bo'lgani uchun otdan birinchi navbatda transport vositasi sifatida foydalanib kelingan. Bundan tashqari, xo'jalik ishlarida, ya'ni bug'doyni yanchib olishda, moy juvozlari aylantirishda, yuk tashishda foydalanib kelingan. Shuningdek, o'zbek xalqining milliy o'yini *ko'pkari (uloq)* chopish uchun ot eng muhim o'rin tutadi. Ko'pkari chopish uchun otlar arpa berib boqiladi. Yilqining yoshi olti yoshga yetgandan so'ng uni ko'pkariga qo'shish mumkin. Ko'pkari salqin mavsumda bo'lgandagina boqilgan otlar ko'pkariga qo'yiladi. Boshqa paytlarda esa baytal yoki ayg'irlar bilan ko'pkari chopiladi. Bundan tashqari, otni sovg'a sifatida berishadi, ya'ni ko'pkariga sovrin yoki to'yga sovun sifatida ham otdan foydalanilgan⁴⁰.

Albatta chavandozlik o'ziga xos bir san'at bo'lgani kabi yaxshi otlarni yetishtirish, ko'paytirish, ularni boqa bilish, tarbiyalay olish ham bundan qolishmaydigan san'atdir. Yaxshi otlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi va kamolga

³⁸ Dala yozuvlari. Sherobod tumani Xomkon mahallasi.2023-yil.

³⁹Файзуллаева М., Кичкилов Ш. Хомкон. Тошкент, 2022. – Б. 70-73.

⁴⁰Файзуллаева М., Кичкилов Ш. Хомкон. Тошкент, 2022. – Б. 70-73.

yetmaydi. Tulporlarni bahor, yoz oylarida o'tloqlarda, yaylovlarda boqishga to'g'ri keladi. Ularga har kuni 4-6 kilogrammgacha arpa berishni kanda qilmaslik kerak. Bundan tashqari, otlarni vaqtida suvlab, beda bilan oziqlantirib turishni ham unutmaslik lozim bo'ladi. Agar oziqlantirish maromi buzilsa, u holda otlar yaxshi chopmaydi. Kuz kirishi bilan otni erta tongdan to quyosh chiqquniga qadar sovutish darkor. Bu ham har kuni bajarilishi zarur. Shundan so'nggina ayg'irni ko'pkariga olib kirish mumkin. Yana shuni ham aytish lozimki, boqilgan tulporhech qachon quyosh issig'ida choptirilmaydi. Mabadao bilmasdan uni kunning issig'ida 6-8 marta yugurtiradigan bo'lsa, u holda yil davomida qilingan mehnatlar butkul zoye ketadi⁴¹. Ota-bobolarimiz yaxshi otlarni tarbiyalab, ularni e'zozlab kelar ekanlar, birinchi navbatda tanlash va tarbiyalashga alohida e'tibor beradilar.

Ot bag'oyat sezgir, ayni paytda nozik jonivor. Shu bilan birgalikda xislatli jonivorlardan biridir. Bobolarimiz oti bor xonadon fayzli barokatli bo'ladi deb hisoblaganlar va shunga ishonganlar. Ot ziyrak jonivor bo'lgani bois, yaxshiyomon narsani sezadi, deydilar. Aytishlaricha, ayrim otlar hattoki o'n besh yigirma chaqirim naridagi xavfni ham sezib, egasiga xabar berarkan. Vaqti-qazosi yetib egasi olamdan o'tsa, yum-yum yig'lagan tulporlarni ham odamlar ko'rgan ekan⁴².

Xomkonda qorabayir otlar keng shuxrat topgan. Odatda otlarga ularning rangi (sariq, to'riq, targ'il, qo'ng'ir, ko'k, qora, saman, qashqa va hokazo) va tuzilishiga (xipcha, yo'g'on, uzun bo'yli, yolineg, dumining kalta yoki uzunligiga) qarab nom qo'yiladi⁴³. Ta'bir joiz bo'lsa, mashhurlikda uchqur otlar ham mana-man degan mohir chavandozdan qolishmagan⁴⁴.

Shu o'rinda Saman chopag'on Yusupovning hikoya qilishicha: "Xomkon qishlog'ida kolxozga raislik qilgan Toshpo'lat Eshkeldiyevning "Ko'k kalta"

⁴¹Тошпўлатов Ж. Чавандозўзбегимйигитлари. Тошкент. Янги асравлоди, 2008. – Б. 23.

⁴²Файзуллаева М., Кичкилов Ш. Хомкон. Тошкент, 2022. – Б. 70-73.

⁴³ Dala yozuvlari. Sherobod tumani Xomkon mahallasi.2023-yil.

⁴⁴Файзуллаева М., Кичкилов Ш. Хомкон. Тошкент, 2022. – Б. 70-73.

laqabli zo‘r oti bo‘lardi. U ot baxshilar tili bilan aytganda, chin xonazot edi. Bu otning kuchliligi, ustaligi, aqlliligi uni bilgan barcha chopag‘onlarni hayratga solar edi. Nomi ketgan Suyun, Kenja va Toshtemir chopag‘onlar: - “Ko‘k kalta”ni minib ko‘pkariga kirsang hech qachon dog‘da qolmayсан, otga bir qamchi bossang bo‘ldi, qolgan barcha ishni uning o‘zi bajaradi” - deya ta‘riflab, adog‘iga yeta olmasdilar. Hikoya qilishlaricha, taxminan o‘n yillar mobaynida “Ko‘k kalta”ga yetadigan ot viloyatda bo‘lmagan ekan. Shuning uchun Eshkeldi raisning “Ko‘k kalta”si degan gap juda mashhur bo‘lib ketgan edi va u haqda qiziqarli hikoyalar, rivoyatlar hali-hamon xalq orasida yuradi”⁴⁵.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxon vohasidan ko‘plab sara otlarni frontga olib ketdilar. Elimizning xonazot otlari ham xuddi jasur jangchilar kabi dushmanga qarshi kurash chizig‘ida faol bo‘ldilar, ko‘plab zotli otlar yo‘q bo‘lib ketdi. Urushdan keyingi tiklanish yillarida ham otlardan ulov sifatida keng foydalanishdi. Shunisi qiziqki, ikkinchi jahon urushi yillarida sara otlarni shunchaki terib olib ketishmagan. Ularga tuman harbiy komissariati tomonidan alohida chaqiriq (povestka) qog‘ozlari jo‘natilgan. Masalan Xomkon qishlog‘idagi dovruqli bo‘lgan “Ko‘k kalta”, “Qora yo‘rg‘a”, “Jiyron qashqa” degan otlarga alohida chaqiriq qog‘ozi kelgan. Odamlar urushga olib ketilayotgan otlarini xuddi farzandlaridek alam va iztirob bilan kuzatganlar⁴⁶.

Davrlar o‘tishi, zamonlar o‘zgarishi bilan xalq o‘z to‘ylarida ko‘pkarini yana tikladi. Demak, Mustafaqulboyning “Qora qashqa”, Toshpo‘lat Eshkeldiyevning “Ko‘k kalta”, Mahmudning “Oq malla”, Murodning “Tarlon bo‘z” kabi otlari Xomkon qishlog‘idan yetishib chiqqan dovrug‘i zo‘r otlar edi⁴⁷.

Surxon vohasining tog‘li hududlarida otdan birinchi navbatda transport vositasi sifatida foydalanib kelingan. Bundan tashqari, xo‘jalik ishlarida, ya‘ni bug‘doyni yanchib olishda, moy juvozlari aylantirishda, yuk tashishda

⁴⁵Ташпўлатов Ж. Чавандозўзбегимийгитлари. Тошкент. Янги асравлоди, 2008. – Б. 33-34.

⁴⁶ Dala yozuvlari. Sherobod tumani Xomkon mahallasi. 2023-yil.

⁴⁷Файзуллаева М., Кичкилов Ш. Хомкон. Тошкент, 2022. – Б. 70-73.

foydalanib kelingan. Shuningdek, o'zbek xalqining milliy o'yini *ko'pkari (uloq)* chopish uchun ot eng muhim o'rin tutadi. Shuning uchun egar yasash va ot anjomlarini tayyorlash kabi mashg'ulotlar ham muhim ahamiyatga ega.

Tarixga nazar tashlasak, qadimdan asosiy transport vositasi tuya hisoblanib, havoning issiq-sovug'iga va suvsizlikka chidamli tuyaning nafaqat terisi va go'shti iste'molda bo'lgan, balki undan katta miqdorda jun ham olingan. xonliklar davrida , masalan, Buxoro amirligida birinchi jahon urushiga qadar 70000 pud tuya juni tayyorlanib, shundan 30000 pudi Rossiyaga jo'natilgan. Yirik shohli hayvonlar butun amirlikka tarqalgan bo'lsa ham, ular asosan katta miqdorda amlokdorliklarida boqishgan. Yirik shohli hayvonlar amirlikda 1,7 million boshni tashkil etgan, bundan tashqari tog'li hududlarda katta miqdorda echki boqilib, ularning soni 6,5 millionga yetgan.

Amlokdorliklarda ijtimoiy turmush tarzi va iqtisodiy-ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan savdo-sotiq, uning rivojiga hissa qo'shgan yo'llarni qurish masalasiga alohida e'tibor berishga harakat qilingan. Masalan, amlokdorligini o'zaro aloqasini bog'laydigan yo'llarni qurish, ta'mirlash, ko'priklarni qurish ishlariga ma'lum e'tibor berildi. Sho'rchi amlokdorligining yo'llarini ta'mirlash, davonlarni, daryo jilg'alarini tozalash, suv o'pirib, yuvib ketgan daralarni tiklash masalasida Hisor-Sho'rchi-Qumqo'rg'on-Jarqo'rg'on manzilgohlaridagi ko'priklarni qurish ishlari, qayta ta'mirlash XIX asrning 20-30 yillarida mukammal amalga oshirildi. Biroq yo'llarni asosiy qismida tosh yotqizilmaganligi tufayli, loy, botqoqlik aravalarining harakatiga jiddiy to'siq bo'lib, karvonlar harakatini to'xtatib, g'ildiraklarini tez izdan chiqishiga sabab bo'lar edi.

II bob bo'yicha xulosalar.

Surxon vohasi mardlik, jasurlik timsoli sifatida o'zining chavandozlari bilan faxrlanadi. Alpomish avlodlari bo'lgan chavandozlar vatan obro'yi, or-nomusi, vijdoni hamda mustaqilligi uchun doim chaqqonlik, abjirlik, hushyorlik va kuchlilikni o'zlarida aks ettirganlar. To'y ko'pkarilarida yurt, qishloq, ovul or-nomusi uchun kuch sinashib, aql-tafakkur va bilak kuchlarini ko'rsatgan mashhur chavandozlar yetishib chiqqan.

Tog'li hududlarda otdan birinchi navbatda transport vositasi sifatida foydalanib kelingan. Bundan tashqari, xo'jalik ishlarida, ya'ni bug'doyni yanchib olishda, moy juvozlarini aylantirishda, yuk tashishda foydalanib kelingan.

Shuningdek, o'zbek xalqining milliy o'yini *ko'pkari (uloq)* chopish uchun ot eng muhim o'rin tutadi. Ko'pkari chopish uchun otlar arpa berib boqiladi. Yilqining yoshi olti yoshga yetgandan so'ng uni ko'pkariga qo'shish mumkin. Ko'pkari salqin mavsumda bo'lgandagina boqilgan otlar ko'pkariga qo'yiladi. Boshqa paytlarda esa baytal yoki ayg'irlar bilan ko'pkari chopiladi. Bundan tashqari, otni sovg'a sifatida berishadi, ya'ni ko'pkariga sovrin yoki to'yga sovun sifatida ham otdan foydalanilgan.

Albatta chavandozlik o'ziga xos bir san'at bo'lgani kabi yaxshi otlarni yetishtirish, ko'paytirish, ularni boqa bilish, tarbiyalay olish ham bundan qolishmaydigan san'atdir.

Ko'pkari (uloq) o'yini chavandozlikni oliy darajadagi milliy o'yini bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodga ota-bobolarmizdan meros bo'lib, qolgan milliy o'yinlarni o'rgatishdan iboratdir.

Yurtimizda otchilikni rivojlantirish ham muxim vazifamizdan biridir. Hech qachon, hech bir zamonda va hech bir mamlakatda sportchi o'z-o'zidan tanilmaydi, o'z-o'zidan dovrug' qozonib, chempion ham bo'lmaydi.

Boysun mardlik, jasurlik timsoli sifatida o'zining chavandozlari bilan faxrlanadi. Alpomish avlodlari bo'lgan chavandozlar vatan obro'yi, or-nomusi, vijdoni hamda mustaqilligi uchun doim chaqqonlik, abjirlik, hushyorlik va kuchlilikni o'zlarida aks ettirganlar.

Qadim davrlardan yilqichilik ham ancha rivojlangan. Afsonaviy otlar xalq ijodida, doston va rivoyatlarda, shoirlar va baxshilar tilida kuylangan. Otlarminish, aravagaqo'shishamda yuk tashish uchun parvarish qilingan. Sharqiy Buxoro bekliklarida ko'chmanchi elatlardagidek yilqilar uyuri, ya'ni biyalar to'dasi bo'lmagan, ammo, yuqori sifatli ot navlariga qiziqish zo'r bo'lgan (loqay, markavax.k.) uyurli otlarsaqlangan.

Xomkon qishlog'ining barcha qoraqalpoq urug'lari azal-azaldan yilqichilik bilan shug'ullanib kelishgan. Yilqichilikda ham xuddi chorva mollarini yoshiga, jinsiga qarab nomlaganidek, yilqilarni ham yoshiga, jinsiga va rangiga qarab nomlashadi hamda tavsiflashadi. Jumladan: endi tug'ilgani *qulun*, so'ngra *toy* deyiladi. Ikki yoshdan uch yoshga qadar *g'unon*, uch yoshdan to'rt yoshga qadar *do'nan* deb nomlanadi. To'rt yoshdan oshgandan so'ng urg'ochisi *baytal*, erkagi *ayg'ir* deyiladi.

Shuningdek, qishloqlarda otning rangiga va tanasidagi a'zolariga qarab otning yaxshi yoki yomon xislatlarini aytib berishadi. Yaxshi, ko'rkam otni *aston baytari* deyishadi. Uning tishi nozik, payvasta tutashgan va oq bo'ladi. Ko'z kiprigi qora, pastki labi uzunroq va keng, manglayi keng, chakkasi ochiq, qulog'i uzun va quloqlarining orasi ochiq, bo'yni to'g'ri va bo'ynining tubi yo'g'on, orqasi baland, bo'g'ini qisqa, siynasi keng, qo'l oyog'ining orasi ochiq. Quyrug'i qattiq va uzun quyrug'ining kokili nozik va qisqa, quyrug'ining o'siq sag'risi keng, orqasi qisqa, ikki sonining orasi go'sht bilan to'la va bir-biriga yopishib turgan bo'ladi. Agar bu alomatlar har bir otda bo'lsa yaxshi ot bo'ladi. Bunday otlar yo'l yurganda hushyordir. Shuningdek, unga mingan kishi harakat qilsa uning harakatidan ogoh bo'ladi.

Bundan tashqari, har bir zotning bir hunari bo'ladi, deyishadi. Eng yaxshi rangli ot *to'riq* va *xurmorang ot*. *Jiyronot* zaifroq bo'ladi. *Samanot*, ya'ni sariq-qizil ot bag'oyat yaxshi bo'ladi. Agar *saman otning* yuzida nuqta-nuqtasi bo'lsa va u qora bo'lsa, manglayi go'shtli, sonining orasi, ko'zi, labi qora bo'lsa, u eng yaxshi saman ot hisoblanib, kam uchraydi. Ko'k rangdagi ot ko'pincha badf'yel bo'ladi.

Xomkon qishlog‘i tog‘li hudud bo‘lgani uchun otdan birinchi navbatda transport vositasi sifatida foydalanib kelingan. Bundan tashqari, xo‘jalik ishlarida, ya‘ni bug‘doyni yanchib olishda, moy juvozlarini aylantirishda, yuk tashishda foydalanib kelingan.

O‘zbek xalqining milliy o‘yini *ko‘pkari (uloq)* chopish uchun ot eng muhim o‘rin tutadi. Ko‘pkari chopish uchun otlar arpa berib boqiladi. Yilqining yoshi olti yoshga yetgandan so‘ng uni ko‘pkariga qo‘shish mumkin. Ko‘pkari salqin mavsumda bo‘lgandagina boqilgan otlar ko‘pkariga qo‘yiladi. Boshqa paytlarda esa baytal yoki ayg‘irlar bilan ko‘pkari chopiladi.

Chavandozlik o‘ziga xos bir san‘at bo‘lgani kabi yaxshi otlarni yetishtirish, ko‘paytirish, ularni boqa bilish, tarbiyalay olish ham bundan qolishmaydigan san‘atdir. Yaxshi otlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi va kamolga yetmaydi. Tulporlarni bahor, yoz oylarida o‘tloqlarda, yaylovlarda boqishga to‘g‘ri keladi.

Bobolarimiz oti bor xonadon fayzli barokatli bo‘ladi deb hisoblaganlar va shunga ishonganlar. Ot ziyrak jonivor bo‘lgani bois, yaxshi-yomon narsani sezadi, deydilar. Aytishlaricha, ayrim otlar hattoki o‘n besh yigirma chaqirim naridagi xavfni ham sezib, egasiga xabar berarkan.

Surxon vohasining tog‘li hududlarida otdan birinchi navbatda transport vositasi sifatida foydalanib kelingan. Bundan tashqari, xo‘jalik ishlarida, ya‘ni bug‘doyni yanchib olishda, moy juvozlarini aylantirishda, yuk tashishda foydalanib kelingan. Shuningdek, o‘zbek xalqining milliy o‘yini *ko‘pkari (uloq)* chopish uchun ot eng muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun egar yasash va ot anjomlarini tayyorlash kabi mashg‘ulotlar ham muhim ahamiyatga ega.

III BOB. XALQ OG‘ZAKI IJODIDA CHAVANDOZLIK

SAN‘ATI

3.1. O‘zbek milliy dostonchiligida ask etgan

chavandozlik san'ati

O'zbek milliy dostonchiligida ask etgan ko'pkari insonparvarlik, vatanparvarlik, do'stlik, hamkorlik, o'zora qo'shnichilik, mardlik, jasurlik, ornomus, sevgi-vafo g'oyalarni o'zida mujassasm etgan. Ushbu manbalarni tahlil qilish jarayonida yosh iqtidorli tarixchi-etnograf Ikrom Umarovning ilmiy tadqiqotlaridan o'rinli foydalanildi. Ilmiy izlanishlarga asoslanib, o'zbek xalqi milliy an'analariga xos ko'pkari xalqni hushyorlikka, mehnasevarlikka undash bilan birga, tabiatga mehr, jozotlarga insoniylik to'yg'usi bilan qarash, ot insoni yo'ldoshi, hayvonlari ichida vafodori, qo'riqchisi, qiyin vaziyatlarda suyanchig'i, janglarda madatkori, yigitni oru-nomusini saqllovchi, himoyachisi, dushmanga qarshi nafrati ekanligi dostonlarda ko'ylab o'tilgandir. Baxshilar do'mbirasi chalingan kuylar ohangida Ona zaminga e'tibor, oilani rizq nasibasi, sevgi vafo iffatini himoya qilishda otni o'rni beqiyos ekanligi ko'pkari tufayli ifoda etilgandir. Dostonlarda o'zbek xalqining sevimli mashg'uloti bo'lgan ko'pkari Surxon vohasi Ko'hitang tog' oldi qishloqlarida yashovchi aholi hayotida eng qiziqarli aqliy va jismoniy kuchni sinab kurish tufayli doimiy o'tkazilib kelingan. Bu musobaqa halq orasida qadimdan o'tkazilib kelinganligi dostonlarda o'z aksini topgan⁴⁸.

Ko'pkari Vandob, Darband, Sayrob, Panjob, Laylagon, Egarchi, Chig'atoy, Boybuloq, Charvodor, Istara, Jaloir, To'da, Chorbog', Beshquton, Poshxurt, Qorabog', Zarabog', Sina, Sangardak, Bog'lidara, Olatemir, Jobu, Kakaydi, Bandixon, Toshliyurt, Chilonli, Tangidara, Qorluq, Xo'jamulk, Besherkak, Zang, Bedak, Kalapo'shqiya, Talloshqon, Katta Xatak, Kallamozor, Zarautsoy, Xo'ja Anqo ota nomli kabi qishloqlarda milliy xalq o'yinlari sifatida qadrlanib kelgan.⁴⁹ Ko'pkari to'g'risida turli xil rivoyatlar dostonlarda o'z ifodasini topgan, masalan. to'rt aka-uka Ko'chak, Sher, Baymoq va Xidirlar o'z ot va yilqilarini yo'qotib qo'yib, ularni izlab tog'ma-tog' oshib kelib ularni Bog'li daradan topishadi. Bu

⁴⁸ Dala yozuvlari. Sho'rchi tumani Obodon mahallasi.2023-yil.

⁴⁹ Dala yozuvlari. Sherobod tumani Xomkon mahallasi.2023-yil.

so‘lim, go‘zal, sero‘t tog‘ oralig‘idagi osuda, har tomonidan tog‘lar bilan o‘ralgan oromgoh go‘sha ularga yoqib qolib ko‘chib kelishgan. Ularning qariyb to‘qqizinchi pusht avlodi bu yerlarni obod qilib, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanib yashab kelishmoqda. Hatto, qadimiy afsonalarda ham yilqi va otlat haydab kelgan ikki aka-uka bo‘lmish ajdodlari ham tarixning suronli asrlaridan birida onasining yo‘l ko‘rsatmalari asosida yashab o‘tishganligi qayd qilingan⁵⁰.

Dostonlarda aks etgan ko‘pkari xalq sayllarida, “Navro‘z sayli”da, sunnat to‘yida, havasmand kishilarning nikoh to‘yida, birinchi farzand, nevara ko‘rganida ko‘pkari o‘tkazilishini niyat qilganlarning atagan sovrinlari va maqsadlari, aholining o‘zaro o‘rtaga qo‘ygan qimmatli sovrinlari asosida tashkil qilib o‘tkazilgan. Ishqiboz chavandozlar o‘zaro kelishib o‘z sovrinlarini o‘rtaga qo‘yishib “Gashtak ko‘pkari” turini ham o‘tkazib turishgan. Havasmand tomoshabinlar ham bu turdagi ko‘pkari sovrini uchun o‘z himmatlari bo‘yicha sovg‘a-sovrin qo‘yishib ularni yanada qiziqtirishgan. Baxshilar tomonida ko‘yilgan ko‘pkarini o‘tkazishda “Xalq kengashi”, “To‘y kengashi”, “Gashtak kengashi”, “Niyat qilgan oila kengashi”da kelishib olishgan. Aholi o‘rtasida: “Kengashli to‘y tarqamas”, deyiluvchi, chuqur falsafiy mushohadaga undovchi xalq moqoli dostonlarda bayon qilingan⁵¹.

Yuqoridagi kengashlarda, xususan, xalq oqsoqollik kengashida o‘tkaziladigan ko‘pkari, uning bakovullari, beriladigan borg‘u⁵² sovrinlar, ko‘pkari o‘tkazilish joyi, sovrin tarqatuvchilar kelishib olingan. To‘ylar uchun kengashlarda ham xalq oqsoqollari, qarindosh-urug‘lar, xalq faollari kengash tashkil qilib kelishib olishgan⁵³. “To‘y kengashi” degan alohida to‘y oldi mehmon chaqiriq o‘tkazilgan. Ularda boshqa qishloqlar, o‘zbekning boshqa urug‘lari

⁵⁰Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. “Fan va texnologiya” нашриёти, 2014. – Б. 327-333.

⁵¹Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. “Fan va texnologiya” нашриёти, 2014. – Б. 327-333.

⁵²Борғу-соврин

⁵³ Dala yozuvlari. Sho‘rchi tumani Obodon mahallasi.2023-yil.

yashovchi qishloqlardan to'yga chaqirilishi lozim bo'lgan chavog'on⁵⁴ chavandozlarga ham o'tkaziladigan to'y uning sanasi, o'tkaziladigan ko'pkarisi haqida, ko'pkari joyi haqida oldindan xabar berilgan, to'yga aytuvchi kishi maxsus jo'natilgan. O'z navbatida tojik xalqi vakillari, shu atrofdagi Xomkon, Gurjak, Laylagon, Egarchi, Kallamozor, "Loyliq", Panjob, Sayrob, Sherobodan Poshxo'rt, Qorabog', Zarabog', Sherjon yashovchi boshqa urug' chavandoz-polvonlari ham bu to'ylarda ishtirok etishib, o'zlarida o'tkazilajak to'ylarga bu hudud qatag'on polvonu chavandozlarini taklif qilib kelishgan. To'ylarda doimiy o'zaro bordi-keldili bo'lib turishgan, Kentala qatag'onlari bilan ham o'zaro o'zlarini amaki hisoblab, bordi-keldi qilib turishgan⁵⁵.

Kengashda ko'pkari bakovulini elning hurmatli, yoshi ulug', sobiq chavandozlardan tayinlashgan. Bakovul ikki soha bo'yicha tayinlangan. Birinchi bakovul: ko'pkariga, uning tartibli o'tishiga chavandozning halol ayirganini belgilab turuvchi, tartib o'rnatuvchi hisoblangan. Ikkinchi bakovul: Borg'u (sovrin) larni tayinlovchi, taqdim qiluvchi hisoblangan⁵⁶. Birinchi bakovul ko'pkariga tashlangan buzoq, taka yoki uloqni to'dadan alohida ayirib qocha olganini, unga yondosh bo'lib tortishib hech bermagan, hech kim unga yeta olmagan holatida to'dadan ayirib qochganida "Halol!"-deya xitob qilgan. Chavandozning bir yonida yana bir otda chavandoz bo'lib, u ushlab, to'dadan ayrilib ikkisi teng ketganida nohalol hisoblangan⁵⁷.

Kengash o'tkazish jarayonida to'yga keladigan chavog'on-chavandozlarning ko'pkaridan bir kun oldin kelib kimning uyida tunashi ham kelishib olinib, uy egasini ishtirok ettirib, roziligini olib, otliqlarni mehmon qilish mas'uliyati o'sha uy egasiga topshirilib, so'yish uchun beriladigan 1-2 qo'y, echki, taka yoki sarkaning berilishi kelishilgan. Tartib quyidagicha bo'lgan: 20

⁵⁴Чавоғон-чавандоз (чопоғон, чопувчи)

⁵⁵Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. "Fan va texnologiya" нашриёти, 2014. – Б. 327-333.

⁵⁶ Dala yozuvlari. Sho'rchi tumani Obodon mahallasi. 2023-yil.

⁵⁷Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. "Fan va texnologiya" нашриёти, 2014. – Б. 327-333.

otliqqa 1-2 qo‘y, choy, non, meva-cheva so‘yishli tunash joyi qo‘shxonaga har bir otiga 3 kg dan yem-arpa to‘y egasi hisobidan berilgan. Qo‘shxona-so‘yishli uy egasi uloqchi otlarga somonni esa o‘z hisobidan berish lozimligi kelishilgan. To‘y egalari so‘yishli “Qo‘shxona”dan tunda mehmonlarga qilinayotgan xizmat va mehmonlar holati kayfiyatidan, albatta, xabar olishgan⁵⁸.

Borg‘ular bakovuli “Halol!”-deb aytilishi lozim bo‘lgan chavandozlar uchun borg‘ular ro‘yxatini ko‘pkari o‘tkazuvchi bakovulga berib, aytilgan borg‘uni hadya qilib turgan. Borg‘ular haqidagi xabarni ko‘pkari o‘tkazuvchi bakovul e‘lon qilib turgan sovrinlarning berilishini nazorat qilib turgan. Ko‘pkari yakunida “Axiri” (uloq, taka) deb ataluvchi borg‘u o‘rtaga tashlangan. Uni ayirgan chavandoz o‘z uyiga olib ketib, yor-jo‘ralari, qarindosh urug‘lari bilan birgalikda so‘yib, tozlab, pishirib tanovul qilishgan⁵⁹.

Chovog‘on-chavandoz hamda polvonlar, odatda, birga otlarda yurishib, ham ko‘pkari, ham polvonlikda milliy o‘zbek kurashi musobaqalarida ishtirok etishib, tomosha qilishib yurishgan. Ayrim polvonlarda chovog‘on-chavandozlik qobiliyati ham mavjud bo‘lgan. Ayniqsa, Shohmuhammad polvonda ana shu ikki soha iste‘dodi bilan birga ustachilik qobiliyati ham mavjud bo‘lgan⁶⁰. Hamon bu urug‘ vakillari yog‘och ustachiligi, polvonlik va chovog‘on chavandozlikni bajarib kelishmoqda. Asrlar davomida ulardan usta Xolpo‘lat, Norpo‘lat, usta Safar, usta Odina, usta Allahberdi, usta Aminqul, usta Murodberdilar yog‘och ustasi, yog‘och uymakorligi usta, o‘tov ustasi, ko‘nchilik-poyafzal ustalari yashab o‘tishdi. Hozirgi usta Erkin Abdug‘ofir o‘g‘li, usta Abdunabilar taqachilik, yog‘ochsizlik ishida, usta Aminqul Allahberdi o‘g‘li iste‘dodini davom ettirib chavandoz-chovog‘onlikda ham dovrug‘ tutishdi. Abdug‘ofir Aminqulov ham uning uch o‘g‘li To‘ychi, Shomurod Erkinlar ham ancha vaqt ot saqlab ko‘pkarilarda XX asr oxirida faol qatnashishdi. O‘tish davri qiyinchilik yillarida

⁵⁸Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шакилланиши ва тараққиёти тарихи. “Fan va texnologiya” нашриёти, 2014. – Б. 327-333.

⁵⁹ Dala yozuvlari. Sho‘rchi tumani Obodon mahallasi.2023-yil.

⁶⁰ Dala yozuvlari. Sho‘rchi tumani Obodon mahallasi.2023-yil.

qishloqda uloqchi otlar kamayib qolgan bo'lsa-da, ko'pkariga, ajdodlarning asriy qiziqarli ko'pkari musobaqalariga yanada qiziqish, ishtiyoq kuchaymoqda⁶¹.

Ko'pkari o'tkazilishi davrida ayollar bilan bog'liq urf-odatlar

Ko'pkari boshlanganligi e'lon qilingan vaqtdan to ko'pkarining tugaganligi e'lon qilingunga qadar to'yxona sohibining umr yo'ldoshi, to'ybola onasi bo'lgan ayol otini beliga bog'lagan holda dilida ko'pkari eson-omon, tinch va osoyishta o'tishini oyog'ida tik turib, yurib, mehmonlar bilan ham muloqotda bo'lib yurishi shart qilib qo'yilgan. Xalq donishmandligini qarangki, hech kim to'y sohibining ayolichalik chin yurakdan bu holni tilay olmaydi-da, aslida. Onaning nolasi, iltijosi qanchadan-qancha noxushliklarning oldini olishi tarixiy afsonalarda ham aks ettirilgan⁶².

Sherobod atrofida Chig'atoy, Azon Chig'atoy, Qishloqbozor, Seplon, Novbog', Gegirdak, Cho'yanchi qishloqlarida ham turli urug'lar bilan birgalikda o'zbek chig'atoylari ham yashashadi. Boysun atrofidagi Ko'chkak, Avlod, Pasurxi, qo'rg'oncha, qorabo'yin, Bibishirin, Shayid, Bog'bola, Chinor, Ko'kchi qishloqlarida asosan tojik chig'atoylari yashashadi⁶³.

DAHPARAKENT-Sheroboddaryo yuqorisidagi qishloqlarning umumiy nomi. Mirza Abulazim Somoniyning «Tarixi salotini mang'itiya» asarida qayd etilgan. Bu qishloqlar quyidagilar: Darband, Sayrob, Panjob, Xatak, Zarabog', Qorabog', Vandob, Sherjon, Poshxurt, Korez. Dahparakent-fors-toj -o'n bo'lak qishloq, o'nta qishloqning birlashmasi. O'nta qishloqning bir umumiy nom bilan atalishiga sabab, chag'atoy, qatag'on, toqchi, xo'ja urug'lariga mansub aholining o'zbek yoki tojik, tojik yoki o'zbekligidir⁶⁴.

⁶¹Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шакилланиши ва тараққиёти тарихи. “Fan va texnologiya” нашриёти, 2014. – Б. 327-333.

⁶² Dala yozuvlari. Sho'rchi tumani Obodon mahallasi.2023-yil.

⁶³ С.Турсунов, А.Турсунов, М.Тоғаева. Шеробод тарихидан лавҳалар. -Т.: “Yangi nashr”, 2014. – Б. 157-160.

⁶⁴ Dala yozuvlari. Sherobod tumani Vandob, Sherjon, Poshxurd, Zarabog', Qorabog', Panjob, Sayrob, Darband, Chakop qishloqlari. 2023 yil.

I.Umarovning limiy tahlilda toponim *dah-pora-kent* soʻzlaridan tashkil topgan. *Dah* soʻzi (f-t) “oʻn”, *pora* (f-t) soʻzi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da “boʻlak”, “parcha” maʼnosini, shu kitobda *kent* – (soʻgʻd. – uy, xonadon)maʼlum xususiyati bilan shahar va qishloqdan farqlanib turuvchi aholi yashaydigan joy, kichik va tarqoq shahar maʼnosini anglatadi. E.M.Murzayevning fikricha, *kent* – “koʻchmanchilarning qishki manzili”, “aholi manzilgoh”, «qishloq» maʼnosini anglatadi. Demak, Dahparakent soʻzi “oʻn boʻlak qishloq” maʼnosini bildiradi. Xatak mazkur guruh tarkibiga kirganligi bois risolamizda Dahparakent haqida maʼlumot berib oʻtishni oʻrinli deb topdik⁶⁵.

Oʻn boʻlak qishloq asosan Koʻhitang togʻi etaklarida joylashgan. Koʻhitang soʻzi *koʻh* va *tang* soʻzlaridan olinib (*koʻh*(f-t) – “togʻ”, *tang* (f-t) tor, siqiq, zich oraligʻi, eni, hajmi yetarlicha katta boʻlmagan “eni qisqa, tor togʻ”, maʼnosini bildiradi. Oʻn boʻlak qishloq ana shu kichik togʻ etaklarida joylashgan elatlarga mansubligidan dalolat beradi.

Vaqlar oʻtishi bilan oʻlkalar shu yerda yashovchi ayrim urugʻlar oʻrtasida boʻlib olinadi. Yirik qabila va urugʻlar maʼlum bir oʻlkaga-maxsus yurtlarga koʻchiriladi va yurtlar shu urugʻlarning nomi bilan ataladigan boʻlib qoldi. B.X.Karmishevaning taʼkidlashicha, Sherobod daryosi havzasidagi Sayrob, Panjob, Darband, Poshxurt vodiysi va Sherobod daryosining yuqorisidagi qishloqlar oʻn boʻlak Chigʻatoy (Chigʻatoy Dahparakenti) qishloqlari guruhiga kirgan. Odatda Dahparakent adabiyotlarda geografik nom sifatida uchraydi. Bu nom Mirza Abdulazim Somiyning “Tarixi salotini mangʻitiya” asarida tilga olinadi-yu, lekin uning qayerdaligi koʻrsatilmaydi.

Dahparakent haqida N.A.Mayev va Belyavskiy oʻz asarlarida qimmatli maʼlumotlar beradilar. N.A.Mayev Dahparakent haqida toʻxtalar ekan, uni *Dahqorakent* deb ataydi.Polkovnik Belyavskiy Dahparakentni Dara Pakin deb atab, unga Darbanddaryo yerlari, Koʻhitang va Poshxurd amlakdorliklari kirishini qayd etadi. Shu bilan birga amlakdorliklarning vaqti-vaqti bilan beklarning xonga

⁶⁵ С.Турсунов, А.Турсунов, М.Тоғаева. Шеробод тарихидан лавҳалар. -Т.: “Yangi nashr”, 2014. – Б. 83.

nisbatan sadoqatini hisobga olib, Boysun yoki G‘uzor bekligiga qo‘shib qo‘yilganligini yozadi. Buxoro amirligi amaldorlari tomonidan 1914-1916-yillarda amalga oshirilgan ro‘yxat chog‘ida Dahparakent tarkibiga quyidagi amlokliklar kirganligi ko‘rsatilgan. Bular: Darband, Machay-Kentala, Xatak, Paklakan (Laylagan-I.U.), Poshxurt, Ko‘ktu, Yangiariq, Qumqo‘rg‘on⁶⁶.

Dahparakent haqida B.X.Karmisheva yanada aniqroq ma‘lumot beradi. Uning yozishicha, Dahparakent tarkibiga quyidagi qishloqlar kirgan: Darband, Sayrob, Panjob, Xatak, Zarabog‘, Qorabog‘, Vandob, Sherjon, Poshxurt va Korizot. To‘g‘ri, Xatak chig‘atoy qishlog‘i bo‘lmagan, ammo tili va turmush tarzi o‘zbektilli chig‘atoylarga yaqin bo‘lgan. B.X.Karmisheva Ko‘hitang qishlog‘ini to‘lig‘icha Dahparakent tarkibidagi qishloq deb hisoblash mumkin, deydi. Sababi, bu qishloqning qadimiy aholisi zarabog‘lilar bilan qarindosh bo‘lgan chig‘atoylardir. Bundan tashqari, Poshxurd vodiysining shimoliy qismi, shuningdek Xatak, Panjob va uning tevaragidagi aholi uchun Ko‘hitang bozori yirik savdo markazi bo‘lgan⁶⁷.

Poshxurd qishlog‘i yirik qishloq ko‘p urug‘li aholisi markazi sifatida XVIII asrda ko‘plab tarixiy manbalarda uchraydi. Turli xil urug‘, avlodlar tashkil topgan. Poshxurd ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy markaz sifatida shakllanib, ushbu urug‘lar bir-birlari bilan aralashib, nikoh, urf-odatlar, qadriyatlar umumbashariy jiplashib, asosiy til birligi o‘zbek tili bo‘lib, vatandoshlari sherjonilar, tojik tilida tog‘chi-chig‘atoylar guruhiga kirib, tojik va o‘zbek tillari bab-barovar ishlatiladi. Qadimiy tarixiy manbalarda Zarabog‘ qishlog‘ining paydo bo‘lishi haqida bir qator ilmiy, adabiy manbalar mavjud bo‘lib, mahalliy aholi Zarabog‘ning kelib chiqishi haqida alohida rivoyatlarni qayd etishadi.

⁶⁶ С.Турсунов, А.Турсунов, М.Тоғаева. Шеробод тарихидан лавҳалар. -Т.: “Yangi nashr”, 2014. – Б. 83.

⁶⁷ С.Турсунов, А.Турсунов, М.Тоғаева. Шеробод тарихидан лавҳалар. -Т.: “Yangi nashr”, 2014. – Б. 83.

Mavjud etnologiyaga oid dala tadqiqotlarida Zarabog‘ qishlog‘i XVIII asrga oid bo‘lib, uning shakllanishiga, asosan, Poshxurd qishlog‘i bo‘lib hisoblanadi. Rivoyat qilishlaricha, poshxurdlik aka-ukalar Poshxurdning yuqori shimoliy qismida joylashgan to‘qayzorga ov qilgani borishganda, katta akasini yo‘lbars to‘qayda g‘ajib tashlab o‘ldiradi. Akasining qasosini olish uchun ukasi to‘qayzorga olov qo‘yib, yoqib yuboradi. Akasining xotirasini abadiylashtirish maqsadida to‘qayzorni o‘zlashtirib bog‘ qilib, Poshxurd qishlog‘idan ko‘chib kelib, katta boqqa asos soladi. Katta mehnat evaziga yaratilgan bog‘ go‘zal, serhosil bog‘u bo‘stonga aylanadi. Zar-oltin-bog‘-to‘qchilik ramzi sifatida qishloq nomi Zarabog‘ nomini anglatadi. Zarabog‘ qishloq aholisi tarkibiga Poshxurd qishlog‘idan tashqari Sherjon qishlog‘idan aholi kelib joylashgan. XVIII asr boshlarida Balx vohasidan Oqboy va Ko‘kboy ismli aka-ukalar oilasi, shuningdek, Buxoro amiri Ubaydullaxon davrida Balx viloyatida o‘tkazilgan bosqinchilik-talonchilik istilosidan keyin, zulm, ochlik, qashshoqlik, azob-uqubatiga tortilgan. Kenegas, qutchi, qatag‘on, xazar, xarxo‘r, lo‘li, xuruzak kabi urug‘lar bilan birga xo‘jalar ham murid ovlab Zarabog‘ qishlog‘iga kelganligi haqida ma‘lumotlar mavjud. Zarabog‘ qishlog‘i aholisi ham tog‘chi-chig‘atoy guruhiga kirib, o‘zbek tilida so‘zlashadi. Mavjud tog‘chi-tojik chig‘atoylar ham tojik-o‘zbek tillarida bab-baravar gaplashadi. Elshunos olimlarning ilmiy manbalarida alohida o‘rganilgan, ko‘p urug‘larni o‘ziga mujassam etgan. Laylagon qishlog‘i haqida elshunos olimi B.X.Karimisheva quyidagi fikrni bildiradi; Poshxurd vohasidan shimoliy yo‘nalishda Daxparakent guruhiga kiruvchi Laylagon qishlog‘ida yashovchi o‘zbeklar panjobliklar bilan qudandachilik qilib kelganlar. Chig‘atoy-tojiklar bilan nikoh jihatidan yaqin bo‘lsada, laylagonliklar chig‘atoy-o‘zbeklar bo‘lib, o‘zbek tilida so‘zlashgan, urf-odatlari chig‘atoy-o‘zbek qabilalar urf-odatlaridan iborat bo‘lgan deb yozadi. Laylagonliklarning bir qismini Panjob yaqinida sug‘oriladigan yerlari bo‘lib, ular yozda ana shu bog‘ va dala-hovliga ko‘chib kelib yashaganlar. Shu boisdan yuqori Laylagon qishlog‘i aholisining bir qismi tojik tilini bilmasalar ham Panjobdan ko‘chmanchi bo‘lganda o‘zlarini chig‘atoy-tojiklar deb hisoblaganlar. Yuqori

Laylagonda esa Xatak daryosining qo‘yi oqimi bo‘ylab Sherobod daryosi sohilida joylashgan. Kallamozor qishlog‘igacha bo‘lgan hududlar kirgan⁶⁸. Bu hududdagi aholining ko‘pchiligi elbegi urug‘lari bo‘lib, Xo‘jabulg‘on qishlog‘idan ko‘chib kelgan. B.X.Karmishevaning ma‘lumotlarida yuqori Laylagonliklar haqida ikki xil fikr mavjudligini aytadi. Biri bu yerda yashovchi qo‘ng‘irot va tojiklar, ularni chig‘atoy tojiklar deyishi, ikkinchisi Laylagonliklarni o‘zlarining qo‘ng‘irot urug‘i elbegilar deb atashi. Laylagonliklar uzoq vaqtdan beri panjobliklar bilan qiz berib qiz olib kelganliklari uchun chig‘atoy tojiklarga o‘xshaganmiz, deb tushuntiradilar. Bu fikrlar etnologik dala tadqiqotlarda o‘z isbotini topmadi, chunki Laylagon qishlog‘idagi urug‘lar turklar bo‘lib, antropologiyasi, urf-odatlarini, qadriyatlarini mahalliy o‘zbek chig‘atoylarga xosdir.

Chavandozlik xislatlari

O‘zbek xalqi milliy qadriyatlariga xos bu ajoyib xislatlar otadan farzandga, bobodan nabiraga, hamqishloq chavandozlardan yosh ishqiboz chavandozlarga o‘tib ajdoddan avlodlarga saboq bo‘lib qoladi. Ota yoki bobo yosh bolalarni yoshligidan otdan qo‘rqmaslikka, otda erkin yurishga, ot afzallarini o‘z o‘rnida qo‘yib foydalanishga, otda chapdastlik, chaqqonlik, muovzanat saqlashga, borg‘uni oyoq taqimi ostiga olishga, ko‘pkarida g‘irromlik qilmaslikka, raqib chavandozga shikast yetkazmaslikka, qamchi tortib yubormaslikka, halollikka o‘rgatib boriladi.

Yoshligimizda jo‘ralarimiz o‘rtasiga otga minmagan holatimizda ham mol terisidan tayyorlangan po‘stak⁶⁹ni tashlab bizni qiziqtirib uloq tortish mahoratiga qo‘llarimizni o‘rgatishni otalarimiz, ovuldan yoshi katta chavandozlar o‘rgatishardi. Bizlar shahd bilan raqibimizdan uloqni tortib olishga qiziqib, qizishib, qizib ketardik, juda qiziqarli o‘yin bo‘lardik. Tomoshabinlar otimizni

⁶⁸ С.Турсунов, А.Турсунов, М.Тоғаева. Шеробод тарихидан лавҳалар. -Т.: “Yangi nashr”, 2014. – Б. 155.

⁶⁹Пўстак-мол терисини ишлаб жуни ёки қилини аямасдан тайёрланган иссиқ тўшак.

aytib goho rag‘batlantirishar, goho koyishar, huddi ko‘pkari bo‘layotgandek “Halol!” deb qiyqirishardi”,-deb eslashadi ko‘pkari chopgan chovog‘on-chavandozlardan Sh.Aminqulov⁷⁰.

Chovog‘on harakatchan, chiniqqa, otni sevgan halol, ot afzallarini, chavandoz kiyim-kechagi poyafzalini qadrlaydigan, muhimi ot parvarishni ham chuqur biladigan bo‘lishi shart. Tog‘li hududlarda har qanday xavfni yengishiga tayyor, mard botir bo‘lish zarur. Bunday hududlar qir-adir, soylik, toshloq, tik enishli qiyaliklardan iborat bo‘ladi.⁷¹

Ertaga ko‘pkari bo‘ladi deyilgan kechasi tong otishini bolaligimdan sabrsizlik bilan kutar tunda bir necha bor turib soatni ko‘rar, tongni quvonch bilan qarshi olib otni qashlab egarlab o‘zimni baxtiyor his qilib ko‘pkari bo‘ladigan joyga oshiqardim..”,-deydi chovog‘onlar avlodidan bo‘lgan yosh ishtiyoqmand Jasur Aminqulov – “Ana shunday qiziqishim kuchaygan bir paytda shaxsiy otmizning o‘limi menga qattiq ta’sir qilib, yig‘laganman. Haligacha ko‘pkari xayolida yashayman. Nasib qilsa, qachondir ot boqib, ko‘pkarilarda ishtirok etish niyatim bor”- deya ko‘zlari ot sog‘inchida yoshlandi⁷².

Xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha qo‘shiqchi Mahmud Namozovning ot haqidagi qo‘shig‘i haqiqiy hayotiy haqiqat ekanligi chavandozlar xislatlarida aks etadi.

Oq tulporim bor edi,
Ko‘plar unga zor edi.
Kechir yorim, na qilay,
Otga mehrim bo‘lakcha⁷³.

Hammaga yod bo‘lib ketgan bu qo‘shiq chavandozlar qalbidan otilib chiqqandek go‘yo. Chavandozlar avlodlarining har bir gurungi, albatta, otlarga

⁷⁰Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. “Fan va texnologiya” нашриёти, 2014. – Б. 327-333.

⁷¹ Dala yozuvlari. Sho‘rchi tumani Obodon mahallasi.2023-yil.

⁷²Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. “Fan va texnologiya” нашриёти, 2014. – Б. 327-333.

⁷³ Dala yozuvlari. Sho‘rchi tumani Obodon mahallasi.2023-yil.

chavandozlarga ko‘pkari zavqiga o‘tgan ko‘pkarilar zavqiga xotiralariga, ot boqmoq nash’asiga borib yetadi. O‘zlari mingan otlardagi uloqchilik qobiliyatlarining shirin xotirasiga borib taqaladi, eslab huzurlaniladi.

Ana shunday hollarni kuzatganimda chavandozlikka ishtiyoqmand bo‘lgan farzandlarim otasiga: “Ko‘pkari desa tomdan tashlashga ham tayyorsiz-a?” deb yoshligimda dashnom berganimdan hijolatda qolaman, afsuslanaman. O‘zi chavandozlar o‘ta qiziquvchan bo‘lisharkan. Uchinchi dunyoga kelganda quvonib bir qo‘zi ayirganlarini eslab turishadi qarindoshlar.

Men esa chavandozga umr yo‘ldosh bo‘lgan ayollarga: “Chavandozni qayishrishga harakat qilmang, ularni rag‘batlantiring, o‘z kuchiga ishontiring. Aslida o‘zbekona milliy qadriyatlarimiz yigitlarning chavandozligi, polvonligi, tadbirkorligi, ishbilarmonligi har tomonlama mahoratliligida. Qalbida otga, sportga milliy qadriyat, urf-odatlarimizga muhabbati cheksiz bo‘lgan insonlarning qalbida mustaqil ona O‘zbekistonga, uning ravnaqi, gullab-yashnashiga muhabbat hissi kuchli bo‘ladi. Yosh avlod ulardan o‘rnak oladi”, - degim keladi⁷⁴.

Chavandoz ayollari

Chavandoz-chovog‘on ayollari ham o‘z navbatida har tomonlama puxta serg‘ayrat, uddaburron, ot afzallarini tayyorlash san‘ati va mahoratini puxta o‘rgangan bo‘lishi zarur. Yildan-yilga ot afzallari jumladan eng murakkab to‘qish uslubidagi ot digillari narxi yuqorilab, ularni tayyorlay olish mahoratiga ega bo‘lgan ayollar soni barmoq bilan sanarli holga tushib qoldi. Albatta, ot afzallarini tayyorlashning o‘ziga xos san‘atkorona va mashaqqatli hunarmandchiligini ajdodlardan avlodlarga yetkazish mahoratini o‘rgatish uchun tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur⁷⁵. Bosinduruq, yolpo‘sh, digil, taqim, chirgi, to‘qima ayil (naqshli) ko‘pchiklarning tayyorlashni yo‘lga qo‘yish, qishloqlarda ot boqish, uni boshqarish, ko‘pkari musobaqalarini tiklash ishi yoshlar tarbiyasida muhim

⁷⁴Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. “Fan va texnologiya” нашриёти, 2014. – Б. 327-333.

⁷⁵ Dala yozuvlari. Sho‘rchi tumani Obodon mahallasi.2023-yil.

ahamiyatga ega⁷⁶. Xullas chavandozning umr yo‘ldoshi ot boqish, minish va yuqorida aytilganlarni bajara olish bilan birga sabr-bardoshli bo‘lishi bu el urf-odatlaridan.

Ko‘pkari

Odamlar-o, odamlar,
Bog‘da bitgan bodomlar.
“Eshitmadim” demanglar,
Kecha-kunduz barobar.
Bir-biridan sarvar,
Bahordan keladi xabar.

Tayyor bo‘l shahri barbar,
Malik cho‘l degan qirda.
Toshdek qotgan taqirda,
Bo‘lar ekan ko‘pkari.
Kimning bo‘lsa tulpori,
G‘irko‘kmi, yo boychibor.

Yorg‘iniga ur egar,
Ko‘kan, jiyron, saman ot.
Qorabayir qirq qanot,
Chopqirmi yoki yo‘rg‘a.
O‘ynashur kim o‘zarga,
Ey olomon, quloq sol.
Qilma hargiz bosa-bos.

To‘da-to‘da guldiros,

⁷⁶Турсунов С., Пардаев Т. ва бошқ. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. “Fan va texnologiya” нашриёти, 2014. – Б. 327-333.

Bo‘lsang agar sen odam.
Mardona bo‘l va bardam,
Biring biringga hamdan.
Qisqasi, bo‘lur uloq,
Ter oqar buloq-buloq.

Men odamman deganlar,
Faqat palov yeganlar.
Ko‘kdan yulduz uzganlar,
Devlar o‘yin buzganlar.
Yo‘lga chiqsin tezroq,
Yaqin emas cho‘l, uzoq.

Aytuvchi: Sherobodlik Mengdona momo Suvondiqova⁷⁷.

Tarixchi olim Xamza Kichkilovning xotiralaridan: “1954 yil kuz oylarining birida Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumani Kirshak qishlog‘ida katta to‘y bo‘ldi. Men o‘sha paytda yosh bola edim. Adirlik bag‘rida katta ko‘pkari bo‘layotir, hamma ko‘pkarini tomosha qilish bilan ovora. Bir payt odamlarning tepalik ustidagi qo‘shxona tomon oqib borayotganini ko‘rdim, men ham o‘sha tomonga chopdim. Soqoliga oq oralagan o‘rta yashar baxshi qo‘biz bilan doston kuylar edi. Baxshining kishini rom qiluvchi, ovozi qo‘bizning nolishi bilan hamohang bo‘lib qo‘shilib ketgan ediki, chopag‘onlar ham uloqni unitib tomoshaga kelganidan ko‘pkari to‘xtab qolgan edi. Umar baxshi Safar o‘g‘lining 100 yilligi yurtimizda keng nishonlandi, hozirda uning ijodini o‘g‘li Chori baxshi va nabiralari davom ettirmoqda”⁷⁸.

Xalqimizning urf-odatlari, to‘y, quda-andachilik, sunnat to‘ylari va boshqa ma’naviy tadbirlarda ko‘ylanadigan “Alpomish” dostoni millatimizni kechagi va bugungi madaniyatini yuksalishiga munosib hissa qo‘shib kelayotgan nodir

⁷⁷Мустафокулов Р. Халқ Педагогикаси Сарчашмаси. –Термиз: 2010.

⁷⁸Кичкилов Хамза. Дала ёзувлари. Шеробод тумани Хомкон қишлоғи. 2018 йил.

noyob asardir. “Ana shunda, hu qarang, rasta-rasta odam to‘lib ketdi baland-pastda, qo‘y so‘yilyapdi, surnay chalinyapdi, qozon qo‘yilyapdi. Qo‘ng‘irot-Do‘rmon, butun O‘zbek mamlakati Chilvir cho‘lini, Xovdak ko‘lini bosib ketdi. “Shunday adolatli poshshaga ham Xudo farzand bersin-a”, “Xushxabariga 6 oy to‘y bersa, zuryodlari dunyoga kelgach, boz 6 oy to‘y beradi, yetim-yesirlarning bari to‘yib qoladi”, “Xudoyo, yaxshiga bersin!...” deyishib, bachchag‘ar hamma dalaga chiqib ketdi... Qozon qo‘yilgan, qo‘y so‘yilgan, odamlar gala-gala kelayapdi, tovoqlar to‘rtov ora qo‘yilyapdi. Nafsi yomonning murti kuyayapdi, “Juvonmarg o‘lgur kalvachcha, nariroq tur”, deb tumshug‘iga turtayapdi, ul esa onajon, bilmasam, deb og‘zini dasturxonga surtayapdi... Hov unda Boybo‘ri bilan Boysari kurashga boylik bersa, birovi ko‘pkariga sovrin qo‘yayapdi. Shuytib, to‘y o‘taversin, Olloh taoloning karami bilan to‘qqiz oy to‘qqiz kun o‘tib, Boybo‘riga avval birgina farzand ato etdi. Boysari qiz ko‘rdi. Ulga Hakimbek, qizga — Barchin deb ism qo‘yishib, ikkingiz quda bo‘linglar, deya el aka-uka Boybo‘ri, Boysarilarga duo berishdi...” “Alpomish” o‘zbek xalqining milliy g‘ururi, ma’naviyatimiz poydevori, O‘rta Osiyoda qadimdan yashagan o‘zbek, turkman, qirg‘iz, qaroqalpoq va boshqa xalqlarni etnik qatlami bo‘lgan elat va qabilalarni adabiy yodgorligidir.

3.2. Surxon vohasi etnosportida chavandozlik san'atining milliy o'yin turlari

Ko'pkari — mintaqada keng tarqalgan o'yinlardan biri. U nikoh va sunnat to'yularida, Navro'z paytlari qir-adirlarda o'tkaziladi. Ko'pkarining asosiy ishtirokchisi chavandoz va uning otidir. Uning qatnashchilari *chopag'on* deyiladi. Ko'pkaribozlar ko'pkarida otlarga baho berib turganlar⁷⁹. Ko'pkarining ba'zi joylarda *uloq* yoki *uloq tortish* singari nomlari bor.⁸⁰

Ko'pkarida to'riq⁸¹, saman⁸², targ'il⁸³, bo'z⁸⁴, jiyron⁸⁵, qashqa⁸⁶ va boshqa otlar ishtirok etadi⁸⁷. Tajribali sayislarning fikricha, *bo'z* otning har uchtadan biri, *jiyron* – har sakkiztadan biri, *qora* – o'n ikkitadan biri, *to'riq* – o'n beshtadan biri uloqni ayira oladi. Ko'pkarida eng ko'p ishtirok etadigan turi to'riq ot hisoblanadi. Ko'pgina chopag'onlarning guvohligiga ko'ra, ko'pkarilarda agar bo'z ot ishtirok etsa, u albatta g'olib chiqqan. G'olib chopag'on sovrinni olgan. O'rta qo'yilgan sovrin *borg'u* yoki *zot* deyiladi⁸⁸.

Ko'pkari tushadigan joyni *maydon* yoki *ko'pkaritaxta* deyishadi. Ko'pkari o'tkaziladigan kuni ertalab saharda 70 kilolik taka so'yiladi. Kallasi, orqa oyoqlari kesiladi. Old oyog'i kesilmasa *paychali taka*, to'rtovi ham kesilgan bo'lsa,

⁷⁹Умаров И. Кўхитангтоғ қишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – Б. 117-120.

⁸⁰ Dala yozuvlari. Sho'rchi tumani Obodon mahallasi.2023-yil.

⁸¹Қора қизил, тўқ рангдаги от тури.

⁸²Оч малла, сарғиш, сомонранг от тури.

⁸³Сарғиш ва қора йўлли от.

⁸⁴Қўкка мойил оқ, очиқ рангдаги от тури.

⁸⁵Қизғиш малла от тури. Оёқлари, пайчалари оқ бўлади.

⁸⁶Рангидан қатъий назар, пешонасида қашқаси бўлган от.

⁸⁷Умаров И. Кўхитангтоғ қишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – Б. 117-120.

⁸⁸Умаров И. Кўхитангтоғ қишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – Б. 117-120.

paychasiz taka hisoblanadi. So‘ng bir kilo tuzni qo‘ltiq va butlariga sepib ustidan suv quyiladi. Keyin usti sholcha bilan yopib qo‘yiladi. Shu holatda ko‘pkarigacha turadi. Ertalab soat o‘nlarga yaqin uloq maydonga olib boriladi va ko‘pkarichilarga tashlanadi. Bellashuvga ketayotgan chopag‘onlar oynaga qarashlari shart bo‘lgan. Ko‘pkarida uloqni olgan ayrim chopag‘onlar otlarning harakatini nafaqat qamchi, balki shovqin vositasida ham boshqara olishgan.⁸⁹

Ko‘pkari tushishdan oldin chopag‘onlar tuya junidan to‘qilgan paytava bilan oyoqlarini o‘rashgan. Bunday paytava oyoqni mayin ushlab turish uchun kerak edi. Shundan so‘ng uning ustidan, ya‘ni to‘piqdan to sonning yuqori qismiga qadar kigiz o‘rashgan. Undan keyin shim yoki ishtonni kiyib olganlar. Oyoq kiyim sifatida no‘g‘ay etik kiyganlar. Sababi, no‘g‘ay etik uzangidan o‘tib ketmaydi⁹⁰.

O‘tmishda chopag‘on uloqni tortib yakka o‘zi 50-100 metrgacha olib chiqa olsa, bakovul tomonidan *halol* deyilgan. Hozirda esa bunga uncha e‘tibor berilmayapdi. 10-12 metr chiqa olsa «halol» deyiladi. Shuningdek, halol bakovullar ko‘pkarida g‘irrom ishlatilishiga yo‘l qo‘yishmagan. Agar g‘irromlikni sezib qolishsa, sovrinni bermay boshqatdan qo‘yishgan.

Ko‘hitang, Boysun, Dehqonobod tomonlarda o‘tkaziladigan ko‘pkarida *marra* degan tushuncha yo‘q. Qashqadaryoning Shahrizabz, Yakkabog‘, Chiroqchi, shuningdek, Samarqand, Jizzax, Toshkent va Tojikiston tomonlarda kim uloqni marraga birinchi bo‘lib olib borsa *halol* deyiladi. Marrani xalq shevasida *qora* deyishadi. Marra somon yoki ohak bilan katta doira shaklida

⁸⁹ Dala yozuvlari. Sho‘rchi tumani Obodon mahallasi. 2023-yil.

⁹⁰ Умаров И. Кўхитангтоғ қишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – Б. 117-120.

chizib qo'yiladi. Marraga yetib kelgan chopag'on uloqni ana shu doira ichiga tashlashi lozim⁹¹.

Marrasiz ko'pkarining afzallik tomoni shundaki, otning tezligi bilan uloqning og'irligi kamayadi. Marra chizig'i bo'lganda esa, chopag'on uchun uloqning og'irligi sezilarli darajada oshib boradi. Sababi, ot chopayotgan vaqtda uloqni bosadi, chopag'onning ko'krak, bel, bilak, yelka qismlariga og'irlik tushadi.

Ko'pkarida g'irromlikning eng ko'p tarqalgan usuli arqon ishlatish edi. Bunda chopag'on uloqni o'ziga tortgan vaqtda hech kimga bildirmay chaqqonlik bilan uloqning paychalaridan arqonni o'tkazib, bir uchini egarning boshidan o'tkazgan. Natijada og'irlik qo'lga emas, egarga tushgan. Shu yo'l bilan chopag'on qo'lini charchatmay bemalol oldinga chiqa olgan. Buni bilgan bakovullar ko'pkari boshlashdan oldin, chopag'onlarga qarata: «Ho', chopag'onlar, ishtonbog'ingizni yig'ishtirib qo'yingizlar, bir-birovingizga nisbatan g'irromlik qilmangizlar», deb ogohlantirganlar. *Ishtonbog'* deganda arqon nazarda tutilgan. Bu so'z chopag'onlarga ta'sir qilib, arqonni uloqtirib tashlashgan va halol o'ynashga harakat qilishgan⁹².

G'irromlikning boshqa yo'llari ham bo'lgan. Masalan, boshqa otning boshiga urib, uni orqaga qaytarishgan. Ayrimlar tez yugurib chopayotgan otning yuganidan tortib to'xtatishgan. Ba'zi chopag'onlar o'z oyoqlarini uzangidan chiqarib, sezdirmay raqib otning oldingi oyoqlari orasiga tiqqan va otni uchirib yuborishgan. Yoki qamchi dastasini otning oldingi oyoqlariga tiqib uni yiqitishgan. Boshqa holatlarda raqibiga bildirmay pichoq bilan pushtanni yoki

⁹¹Умаров И. Кўхитангтоғ қишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – Б. 117-120.

⁹²Умаров И. Кўхитангтоғ қишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – Б. 117-120.

to'shayilni kesib tashlashgan. Bunday paytlarda raqib chopag'on egari bilan qo'shilib yiqilib tushgan va hokazo⁹³.

Garchi bular g'irrom usullar bo'lsa-da, chopag'onlarni bo'lg'usi janglarga tayyorlab borishga xizmat qilar edi. Chopag'onlar ko'pkarida o'rgangan g'irrom usullarni janglarda qo'llashgan va raqiblarini dog'da qoldirishgan. O'zlarini ham ehtiyot qilib yurishga o'rgatishgan. Jang vaqtida yuqorida ko'rsatilgan usullardan tashqari, chopag'onlar o'zlarining uchqur otlariga minib, dushmanga yetib olgan va dushman otidan yuganni bir siltab yulib tashlashgan. Yuganini yo'qotgan ot jilovsiz qolgan. Bunday otni boshqarib bo'lmagan. Jilovsiz qolgan chopag'onni omadi chopsa tirik qolgan. Ko'pchilik hollarda esa halok bo'lishgan.⁹⁴

Ko'pkariga tushgan kishi ilk bor borg'u ayirsa, u Bobo Qambar haqiga sadaqa aytadi. Sadaqa 7 soni bilan boshlanishi kerak, chunonchi, bundan 40 yil ilgari 7 so'm, keyin 70 so'm, 1990 yillarda 700 so'm, 2000 yillarning boshida 7000 so'm, 2010 yilda 70 ming so'm bo'lsa, endilikda 700 ming so'mga yetdi⁹⁵.

Ba'zi holatlarda ot egasini bexosdan yiqitib o'ldirib qo'ysa, uning dumi bilan yelka yolini *kuzashgan* (olib tashlashgan). Ot o'z egasining ovozi eshitmasligi uchun qulog'ini pastga qaratib 40 kun bog'lab qo'yishgan. Mabodo biron kishi o'z otini turli sabablarga ko'ra kasal qilib o'ldirib qo'ysa (kuchantirsa, vaqtida ovqatini bermasa, charchatib ko'pkariga qo'shsa), boshqa shunday holat takrorlanmasligi uchun irimiga olov yoqib, chopag'onning orqa tomonidan aylantirishgan.

Shuni ta'kidlash joizki, ot bilan uning egasini ko'zga ko'rinmas ip bog'lab turadi. Ot o'z egasiga mehr qo'yadi, unga erkalanadi, hazillashadi. Egasini bir

⁹³Умаров И. Кўхитангтоғ қишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – Б. 117-120.

⁹⁴ Dala yozuvlari. Sho'rchi tumani Obodon mahallasi.2023-yil.

⁹⁵Умаров И. Кўхитангтоғ қишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – Б. 117-120.

yoki ikki kundan keyin ko'rsa kishnab yuboradi. Xursandligidan yer depsinib, boshini quyiga tushirib, dumlarini gajak qilib, quloqlarini tepaga chimirib, qoziq atrofida aylanadi. Suvsiz yoki yemsiz qolganda esa ot nola qilib kishnaydi. Guvohlarning aytishicha, egasi o'lgan ot yig'lagan, bezovtalanib, bir hafta ovqat yemagan. O'z egasiga sodiq ot uni yarador holida tashlab ketmagan⁹⁶.

Xalq tushunchasiga ko'ra, ro'za oyida, har 10 ming yoki 100 ming otdan biri Laylatulqadrni ko'rib, og'zidan olov chiqarar ekan. Kimki bundan qo'rqmasa, seskanmasa, u odam boy-badavlat bo'ladi deb ishonishgan. Qo'rqqan odam tez orada o'ladi deb o'ylashgan. Ammo bu holatni juda kam odamgina ko'radi, degan tushuncha ham bor edi.

XX asrda Ko'hitang qishloqlarida ko'pkari chopish bo'yicha yirik maktab shakllangan va bu yerdan yetishib chiqqan chopag'onlar xalq o'rtasida juda katta shuhrat qozonishgan edi. Ular orasida: Xo'janqondan Yo'ldosh Ibragimov, Xomkondan aka-uka Xolli va Saman Mamayusupovlar, Bo'z o'g'lon, Ziyodulla Norliyev, Chilonzordan Norxon chopag'on, Munchoqdan G'ofir chopag'on, Sayrobdan Petka chopag'on va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Chopag'onlarning ko'pchiligi bahodir kishilar bo'lgan. Masalan, Xolli chopag'on Mamayusupov 4 yashar otni, ukasi Saman chopag'on esa 3 yashar otni yelkasida ko'tarib mashq qilgan⁹⁷.

Kampirtepalik chopag'onlardan Hamid Qurbonov, Qurbonboy O'razov, Iskandar Obidov, Xonnazar Beknazarov va Chambar Shoymardonov «besh temirqo'l» laqabini olishgan. Beshovlon ko'pkariga borishganda, boshqa

⁹⁶Умаров И. Кўхитангтоғ қишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – Б. 117-120.

⁹⁷Умаров И. Кўхитангтоғ қишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – Б. 117-120.

chopag'onlar o'yindan chiqishga majbur bo'lishgan. «Temirqo'l» chopag'onlar butun borg'uni olib ketishgan⁹⁸.

XX asrning o'rtalarida tog' aholisining ommaviy ravishda pastga ko'chirilishi, Rossiyadan ko'chib kelgan xalqlar bilan aralashib yashashlari va ulardan yangi o'yinlarning o'zlashtirib olinishi, shuningdek, maktablardagi jismoniy tarbiya darslarida shaxmat-shashka, tennis, voleybol, basketbol, futbol kabi sport o'yinlarining kiritilishi natijasida milliy o'yinlar unutilib yuborildi. Mustaqillik yillarida esa, xalq o'yinlarini keng targ'ib etish dolzarb masalaga aylandi. Bu borada talaygina ijobiy ishlar amalga oshirildi. Zero, xalq o'yinlari yosh avlodni aqlan va ruhan tetiklashtirish bilan bir qatorda jismoniy kamolotga erishuvda muhim ahamiyat kasb etadi.⁹⁹

Uloqcha. Uloqcha xalq ichida “mehmonlarni kutib olish” deb ham ataladi. Uni to'y va boshqa tantanalarda bo'ladigan uloqningdebochasi, deb tushunsa ham bo'ladi. Uloqcha quyidagicha bo'ladi: Katta uloq bo'ladigan to'y va boshqa tantanalarga taklif etilganlar 10-15 kishi o'rtada pul to'plashib yoki o'zaro kelishib serka olishadi. Uni so'yishib, uloqchaga tayyorlaydilar. Katta uloqda borishayotganlarida, uni abjir, tajribali uloqchining taqimiga bosib berishadi, U to'yxonaga yaqinlashganda, otining jilovini quyib yuborib, to'yxona tomonga tez choptiradi. O'z navbatida, to'yxonada ham to'y qilayotganning yaqinlaridan 5-6 ta otliq undan uloqchani tortib olmoq uchun peshvoz chiqishadi. Agar ular uloqchani tortib olishsa, chavandoz beriladigan sovrindan mahrum bo'ladi. Uloqcha katta uloq boshlanguncha davom etadi. Bu o'yin yarim o'troq chorvador aholi o'rtasida hozirgacha saqlanib kelmoqda¹⁰⁰.

Milliy o'yinlar asrlar davomida aholining mentaliteti, xo'jalik va ijtimoiy hayoti bilan bog'liq holda shakllanib borgan. O'z bolalarini kuchli, baquvvat,

⁹⁸Умаров И. Кўҳитангтоғ қишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – Б. 117-120.

⁹⁹ Dala yozuvlari. Sho'rchi tumani Obodon mahallasi. 2023-yil.

¹⁰⁰Турсунов С., Жўраев Б. Маҳалла-мустақил юрт таянчи. – Тошкент: “Muharrur” нашриёти, 2012. – Б.32.

chidamli va epchil bo'lib tarbiya qilish maqsadida hudud aholisi qadimiy an'analarni takomillashtirgan holda maxsus tizim ishlab chiqqan. Unga ko'ra, yosh avlod bolalik va o'smirlik chog'ida turli o'yinlarni o'ynashgan. Voyaga yetganda esa, kurash (olish), ko'pkari, ot chopish va hokazolarda ishtirok etishgan.

Harbiy mashg'ulotlar ham o'tkazilgan. Otda va piyoda holatida qilichbozlik, nayzabozlik, palaxmon otish, merganlik, qo'l jangi usullari o'rganilgan. Yoshlik chog'laridanoq bu saboqlar olingan. Otliqlar keskin harakatlarni amalda qo'llaganlar, ya'ni ot bilan jarlik yoqalab chopish, tepalikka sakrash, uzangidan foydalanish, jilovni boshqarish, yolg'ondakam chekinib o'q otish, otda harakatlanib miltiqdan o'q uzish, raqibini otdan uloqtirish kabi mashqlarni bajarishgan¹⁰¹.

Agar safdoshlardan biri yarador bo'lgan taqdirda chopayotgan ot ustida bir qo'lni egarning karsoniga qo'yib, ikkinchi qo'l bilan yaradorni ko'tarib o'z oldiga o'ngarish yoki orqaga ortib olish kabi murakkab usullar bajarilgan. Bunda ko'pkarida olingan mashqlar juda ham asqotgan. Ko'pkariga tashlanadigan taka og'irligi taxminan 70 kg bo'lishini hisobga olsak, otliq askar shuncha og'irlikdagi yukni ko'tarishi uchun chindan o'ta baquvvat bo'lishi lozim edi.

Tog'da tayyorgarlik ko'rgan yigitlar qurolsiz, oddiy cho'pon esa tayog'i bilan himoyalanihga o'rgatilgan. Masalan, dushman otlig'i qo'qqisidan qilich chopib qolsa, unga chap berib, chaqqonlik bilan otning old oyoqlari orasiga cho'pon tayog'ini tiqadi va raqibni oti bilan qo'shib yiqitadi. So'ngra dushmanga tashlanib, uni bitta tayoq bilan ipsiz bog'lab qo'yadi¹⁰².

¹⁰¹Умаров И. Кўхитангтоғ қишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – Б. 117-120.

¹⁰²Умаров И. Кўхитангтоғ қишлоқлари аҳолиси номоддий маданиятининг этник ва локал хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Термиз, 2022. – Б. 117-120.

Shu tariqa, tog'lik yigitlar o'zlarini jismonan chiniqtirib, tayyorlab borishgan. Mana shunday sharoitlarda o'sgan tog'liklar mohir chapog'on, tengi yo'q polvon, dovyurak jangchi bo'lib yetishganlar. Bu yurtidan ko'plab botirlar yetishib chiqdi. Bularning barchasi oddiylikdan murakkablikka qadar bosqichma-bosqich davom etuvchi o'yinlar natijasida erishilar edi.

III bob bo'yicha xulosalar.

Qadim davrlardan yilqichilik ancha rivojlangan. Afsonaviy otlar xalq ijodida, doston va rivoyatlarda, shoirlar va baxshilar tilida kuylangan. Otlarminish, aravagaqo'shishhamda yuk tashishuchunparvarishqilingan.

Yilqichilikda ham xuddi chorva mollarini yoshiga, jinsiga qarab nomlaganidek, yilqilarni ham yoshiga, jinsiga va rangiga qarab nomlashgan. Jumladan: endi tug'ilgani *qulun*, so'ngra *toy* deyiladi. Ikki yoshdan uch yoshga qadar *g'unon*, uch yoshdan to'rt yoshga qadar *do'nan* deb nomlanadi. To'rt yoshdan oshgandan so'ng urg'ochisi *baytal*, erkagi *ayg'ir* deyiladi. Shuningdek, qishloqlarda otning rangiga va tanasidagi a'zolariga qarab otning yaxshi yoki yomon xislatlarini aytib berishadi. Yaxshi, ko'rkam otni *aston baytari* deyishadi. Xalq orasida yilqichilik bo'yicha bilimlar ancha ravnaq topgan.

O'zbek milliy dostonchiligida ask etgan ko'pkari o'yini insonparvarlik, vatanparvarlik, do'stlik, hamkorlik, o'zora qo'shnichilik, mardlik, jasurlik, or-nomus, sevgi-vafo g'oyalarni o'zida mujassasm etgan. O'zbek xalqi milliy an'anlariga xos ko'pkari xalqni hushyorlikka, mehnasevarlikka undash bilan birga, tabiatga mehr, jozotlarga insoniylik to'yg'usi bilan qarash, ot insoni yo'ldoshi, hayvonlari ichida vafodori, qo'riqchisi, qiyin vaziyatlarda suyanchig'i, janglarda madatkori, yigitni oru-nomusini saqllovchi, himoyachisi ekanligi doimiy o'tkazilib kelingan musobaqalarda, halq orasida qadimdan o'tkazilib kelinganligi dostonlarda o'z aksini topgan.

Chovog'on harakatchan, chiniqqan, otni sevgan, halol, ot afzallarini, chavandoz kiyim-kechagi poyafzalini qadrlaydigan, muhimi ot parvarishni ham chuqur biladigan, mard, botir bo'lgan.

Ko'pkari Vandob, Darband, Sayrob, Panjob, Laylagon, Egarchi, Chig'atoy, Boybuloq, Charvodor, Istara, Jaloir, To'da, Chorbog', Beshquton, Poshxurt, Qorabog', Zarabog', Sina, Sangardak, Bog'lidara, Olatemir, Jobu, Kakaydi, Bandixon, Toshliyurt, Chilonli, Tangidara, Qorluq, Xo'jamulk, Besherkak, Zang, Bedak, Kalapo'shqiya, Talloshqon, Katta Xatak, Kallamozor, Zarautsoy, Xo'ja Anqo ota nomli kabi qishloqlarda milliy xalq o'yinlari sifatida qadrlanib kelgan.

Ko'pkari to'g'risida turili xil rivoyatlar dostonlarda o'z ifodasini topgan. Hatto, qadimiy afsonalarda ham yilqi va otlar haydab kelgan ikki aka-uka bo'lmish ajdodlari ham tarixning suronli asrlaridan birida onasining yo'l ko'rsatmalari asosida yashab o'tishganligi qayd qilingan.

Dostonlarda aks etgan ko'pkari xalq sayllarida, "Navro'z sayli"da, sunnat to'yida, havasmand kishilarning nikoh to'yida, birinchi farzand, nevara ko'rganida ko'pkari o'tkazilishini niyat qilganlarning atagan sovrinlari va maqsadlari, aholining o'zaro o'rta qo'ygan qimmatli sovrinlari asosida tashkil qilib o'tkazilgan.

Ishqiboz chavandozlar o'zaro kelishib o'z sovrinlarini o'rta qo'yishib "Gashtak ko'pkari" turini ham o'tkazib turishgan. Havasmand tomoshabinlar ham bu turdagi ko'pkari sovrini uchun o'z himmatlari bo'yicha sovg'a-sovrin qo'yishib ularni yanada qiziqtirishgan. Baxshilar tomonida ko'yilgan ko'pkarini o'tkazishda "Xalq kengashi", "To'y kengashi", "Gashtak kengashi", "Niyat qilgan oila kengashi"da kelishib olishgan. Aholi o'rtasida: "Kengashli to'y tarqamas", deyiluvchi, chuqur falsafiy mushohadaga undovchi xalq moqoli dostonlarda bayon qilingan.

To'ylar uchun kengashlarda ham xalq oqsoqollari, qarindosh-urug'lar, xalq faollari kengash tashkil qilib kelishib olishgan. "To'y kengashi" degan alohida to'y oldi mehmon chaqiriq o'tkazilgan.

O'z navbatida tojik xalqi vakillari, shu atrofdagi Xomkon, Gurjak, Laylagon, Egarchi, Kallamozor, "Loyliq", Panjob, Sayrob, Sherobodan Poshxo'rt, Qorabog', Zarabog', Sherjon yashovchi boshqa urug' chavandoz-polvonlari ham

bu to'ylarda ishtirok etishib, o'zlarida o'tkazilajak to'ylarga bu hudud qatag'on polvonu chavandozlarini taklif qilib kelishgan.

Chovog'on-chavandoz hamda polvonlar, odatda, birga otlarda yurishib, ham ko'pkari, ham polvonlikda milliy o'zbek kurashi musobaqalarida ishtirok etishib, tomosha qilishib yurishgan. Ayrim polvonlarda chovog'on-chavandozlik qobiliyati ham mavjud bo'lgan.

Ko'pkari boshlanganligi e'lon qilingan vaqtdan to ko'pkarining tugaganligi e'lon qilingunga qadar to'yxona sohibining umr yo'ldoshi, to'ybola onasi bo'lgan ayol otini beliga bog'lagan holda dilida ko'pkari eson-omon, tinch va osoyishta o'tishini oyog'ida tik turib, yurib, mehmonlar bilan ham muloqotda bo'lib yurishi shart qilib qo'yilgan.

O'zbek xalqi milliy qadriyatlariga xos bu ajoyib xislatlar otadan farzandga, bobodan nabiraga, hamqishloq chavandozlardan yosh ishqiboz chavandozlarga o'tib ajdoddan avlodlarga saboq bo'lib qoladi.

Ota yoki bobo yosh bolalarni yoshligidan otdan qo'rqmaslikka, otda erkin yurishga, ot afzallarini o'z o'rnida qo'yib foydalanishga, otda chapdastlik, chaqqonlik, muovzanat saqlashga, borg'uni oyoq taqimi ostiga olishga, ko'pkarida g'irromlik qilmaslikka, raqib chavandozga shikast yetkazmaslikka, qamchi tortib yubormaslikka, halollikka o'rgatib boriladi.

Yoshligimizda jo'ralarimiz o'rtasiga otga minmagan holatimizda ham mol terisidan tayyorlangan po'stakni tashlab bizni qiziqtirib uloq tortish mahoratiga qo'llarimizni o'rgatishni otalarimiz, ovuldan yoshi katta chavandozlar o'rgatishardi. Bizlar shahd bilan raqibimizdan uloqni tortib olishga qiziqib, qizishib, qizib ketardik, juda qiziqarli o'yin bo'lardi.

Chovog'on harakatchan, chiniqqan, otni sevgan halol, ot afzallarini, chavandoz kiyim-kechagi poyafzalini qadrlaydigan, muhimi ot parvarishni ham chuqur biladigan bo'lishi shart. Tog'li hududlarda har qanday xavfni yengishiga tayyor, mard botir bo'lish zarur. Bunday hududlar qir-adir, soylik, toshloq, tik enishli qiyaliklardan iborat bo'ladi.

Chavandoz-chovog'on ayollari ham o'z navbatida har tomonlama puxta serg'ayrat, uddaburron, ot afzallarini tayyorlash san'ati va mahoratini puxta o'rgangan bo'lishi zarur. Yildan-yilga ot afzallari jumladan eng murakkab to'qish uslubidagi ot digillari narxi yuqorilab, ularni tayyorlay olish mahoratiga ega bo'lgan ayollar soni barmoq bilan sanarli holga tushib qoldi.

Ot afzallarini tayyorlashning o'ziga xos san'atkorona va mashaqqatli hunarmandchiligini ajdodlardan avlodlarga yetkazish mahoratini o'rgatish uchun tadbirkorlikni yo'lga qo'yish zarur. Bosinduruq, yolpo'sh, digil, taqim, chirgi, to'qima ayil (naqshli) ko'pchiklarning tayyorlashni yo'lga qo'yish, qishloqlarda ot boqish, uni boshqarish, ko'pkari musobaqalarini tiklash ishi yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

Chavandozning umr yo'ldoshi ot boqish, minish va yuqorida aytilganlarni bajara olish bilan birga sabr-bardoshli bo'lishi bu el urf-odatlaridan.

Ko'pkari tushishdan oldin chopag'onlar tuya junidan to'qilgan paytava bilan oyoqlarini o'rashgan. Bunday paytava oyoqni mayin ushlab turish uchun kerak edi. Shundan so'ng uning ustidan, ya'ni to'piqdan to sonning yuqori qismiga qadar kigiz o'rashgan.

Ot o'z egasiga mehr qo'yadi, unga erkalanadi, hazillashadi. Egasini bir yoki ikki kundan keyin ko'rsa kishnab yuboradi. Xursandligidan yer depsinib, boshini quyiga tushirib, dumlarini gajak qilib, quloqlarini tepaga chimirib, qoziq atrofida aylanadi. Suvsiz yoki yemsiz qolganda esa ot nola qilib kishnaydi. Guvohlarning aytishicha, egasi o'lgan ot yig'lagan, bezovtalanib, bir hafta ovqat yemagan.

XX asrda Ko'hitang qishloqlarida ko'pkari chopish bo'yicha yirik maktab shakllangan va bu yerdan yetishib chiqqan chopag'onlar xalq o'rtasida juda katta shuhrat qozonishgan edi.

Milliy o'yinlar asrlar davomida aholining mentaliteti, xo'jalik va ijtimoiy hayoti bilan bog'liq holda shakllanib borgan. O'z bolalarini kuchli, baquvvat, chidamli va epchil bo'lib tarbiya qilish maqsadida hudud aholisi qadimiy an'analarni takomillashtirgan holda maxsus tizim ishlab chiqqan. Unga ko'ra,

yosh avlod bolalik va o'smirlilik chog'ida turli o'yinlarni o'ynashgan. Voyaga yetganda esa, kurash (olish), ko'pkari, ot chopish va hokazolarda ishtirok etishgan.

Yigitlar o'zlarini jismonan chiniqtirib, tayyorlab borishgan. Mana shunday sharoitlarda o'sgan tog'liklar mohir chapog'on, tengi yo'q polvon, dovyurak jangchi bo'lib yetishganlar. Bu yurtdan ko'plab botirlar yetishib chiqdi. Bularning barchasi oddiylikdan murakkablikka qadar bosqichma-bosqich davom etuvchi o'yinlar natijasida erishilar edi.

XULOSA

Chavandozlar yoshligidan otdan qo‘rqmaslikka, otda erkin yurishga, ot afzallarini o‘z o‘rnida qo‘yib foydalanishga, otda chapdastlik, chaqqonlik, muovzanat saqlashga, borg‘uni oyoq taqimi ostiga olishga, ko‘pkarida g‘irromlik qilmaslikka, raqib chavandozga shikast yetkazmaslikka, qamchi tortib yubormaslikka, halollikka o‘rgatib boriladi.

Chavandozlik o‘ziga xos bir san‘at bo‘lgani kabi yaxshi otlarni yetishtirish, ko‘paytirish, ularni boqa bilish, tarbiyalay olish ham bundan qolishmaydigan san‘atdir. Yaxshi otlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi va kamolga yetmaydi.

Surxon vohasi chavandozlari vatan obro‘yi, or-nomusi, vijdoni hamda mustaqilligi uchun doim chaqqonlik, abjirlik, hushyorlik va kuchlilikni o‘zlarida aks ettirganlar. To‘y ko‘pkarilarida yurt, qishloq, ovul or-nomusi uchun kuch sinashib, aql-tafakkur va bilak kuchlarini ko‘rsatgan.

Ko‘pkari (uloq) o‘yini chavandozlikni oliy darajadagi milliy o‘yini bo‘lib, o‘sib kelayotgan yosh avlodga ota-bobolarmizdan meros bo‘lib qolgan milliy o‘yindir.

Qadim davrlardan yilqichilik ancha rivojlangan. Afsonaviy otlar xalq ijodida, doston va rivoyatlarda, shoirlar va baxshilar tilida kuylangan. Otlarminish, aravagaqo‘shishhamda yuk tashishuchunparvarishqilingan.

Yilqichilikda ham xuddi chorva mollarini yoshiga, jinsiga qarab nomlaganidek, yilqilarni ham yoshiga, jinsiga va rangiga qarab nomlashgan. Jumladan: endi tug‘ilgani *qulun*, so‘ngra *toy* deyiladi. Ikki yoshdan uch yoshga qadar *g‘unon*, uch yoshdan to‘rt yoshga qadar *do‘nan* deb nomlanadi. To‘rt yoshdan oshgandan so‘ng urg‘ochisi *baytal*, erkagi *ayg‘ir* deyiladi. Shuningdek, qishloqlarda otning rangiga va tanasidagi a‘zolariga qarab otning yaxshi yoki yomon xislatlarini aytib berishadi. Yaxshi, ko‘rkam otni *aston baytari* deyishadi. Xalv orasida yilqichilik bo‘yicha bilimlar ancha ravnaq topgan.

O‘zbek milliy dostonchiligida ask etgan ko‘pkari o‘yini insonparvarlik, vatanparvarlik, do‘stlik, hamkorlik, o‘zora qo‘shnichilik, mardlik, jasurlik, or-

nomus, sevgi-vafo g'oyalarni o'zida mujassam etgan. O'zbek xalqi milliy an'analariga xos ko'pkari xalqni hushyorlikka, mehnasevarlikka undash bilan birga, tabiatga mehr, jozotlarga insoniylik to'yg'usi bilan qarash, ot insoni yo'ldoshi, hayvonlari ichida vafodori, qo'riqchisi, qiyin vaziyatlarda suyanchig'i, janglarda madatkori, yigitni oru-nomusini saqlovchi, himoyachisi ekanligi doimiy o'tkazilib kelingan musobaqalarda, halq orasida qadimdan o'tkazilib kelinganligi dostonlarda o'z aksini topgan.

Chovog'on harakatchan, chiniqqan, otni sevgan, halol, ot afzallarini, chavandoz kiyim-kechagi poyafzalini qadrlaydigan, muhimi ot parvarishni ham chuqur biladigan, mard, botir bo'lgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – B.56.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B.50.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.59.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib–intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. –B.107.
5. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B.491.
6. Bo‘riyev O. va boshq. O‘zbek xalqi boqiy qadriyatlari. – Qarshi: Nasaf, 2005.
7. Jabborov I. O‘zbek xalq etnografiyasi. T., 1994.
8. Jabborov I.M. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003. – 207 b.
9. Jalilov I. O‘zbek xalqi an’anaviy bayramlari, sayillari va o‘yinlari. - Qarshi. Nasaf, 2005.
10. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. M., 1947.
11. Toshpo‘latov J. Chavandozo‘zbekimiyigitlari. Toshkent. Yangiasravlodi, 2008. – B. 23.
12. Tursunov S., Pardayev T., Maxmadiyorova N. Surxondaryo – etnografik makon. - T.: “Akademnashr”, 2012. – 232 b.
13. Tursunov S. Surxondaryo etnografiyasi: o‘quv qo‘llanma. - T: “Tafakkur” , 2020. – 208 b.
14. Tursunov S., Qobulov E. Surxondaryo tarixi: o‘quv qo‘llanma. - T: “Tafakkur” , 2020. – 258 b.

15. Tursunov S., Pardayev T., Qurbonov A., Tursunov N. O‘zbekiston tarixi va madaniyati – Surxondaryo etnografiyasi. – T.: “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti”, 2006. - 278 b.
16. Tursunov S., Pardayev T., Payg‘amov A., Narzullayeva N. Surxon vohasi moddiy madaniyat tarixi. – T.: “Muharrir”, 2013. - 324 b.
17. Tursunov S., Eshboyev Q. Sho‘rchi tarixi va etnografiyasi. - T.: “Fan va texnologiya”, 2013. – 320 b.
18. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. T.: “Akademnashr”, 2011. – 430 b.
19. Tursunov S., Tursunov A., Tog‘ayeva M. Sherobodtarixidanlavhalar. - T.: “Yanginashr”, 2014. - 356 b.
20. Tursunov S., To‘xtayev A., Annayeva Z. Jarqo‘rg‘ontarixidanlavhalar. - T.: “Yanginashr”, 2017. - 566 b.
21. Tursunov S., Pardayev T. va boshq. O‘zbekistonda baxshichilik san’atining shakillanishi va taraqqiyoti tarixi. “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2014. – B. 327-333.
22. Fayzullayeva M.X. O‘zbek taomlari bilan bog‘liq an‘analar. – Toshkent: Yangi nashr, 2010. – 160 b.
23. Fayzullayeva M., Kichkilov Sh. Xomkon. Toshkent, 2022. – B. 70-73.
24. Umarov I. Ko‘hitangtog‘ qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Termiz, 2022.
25. Shaniyazov K. Uzbeki- Karluki. T., 1964.
26. Shaniyazov K. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda. – T.: Fan, 1974.
27. Shaniyazov K.Sh., Ismailov X.I. Etnograficheskiye ocherki materialnoy kultury uzbekov konsa XIX – nachala XX v. – Tashkent, 1981.
28. Шаниязов К.Ш. Основные отрасли животноводства в дореволюционном Узбекистане. (Хозяйственно-культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1975. – С. 189.)
29. Жирмунский В.М. Вопросы генезиса и истории эпического сказания об Алпамыше. – сб.: «Об эпосе Алпамыше», – Т., 1959. – 28 с.

- 30.Жирмунский В.М. Народный героический эпос. - М.-Л., Гослитиздат, 1962. – 435 с.
- 31.Жирмунский В.М. Книга моего деда Коркуда. - М.-Л., Изд-во Акад. наук СССР, 1962. – 299 с.
- 32.Жирмунский В.М. Сказание об Алпамыше богатырская сказка. - М.: «Восточная литература», 1964. - 335 с.
- 33.Жирмунский В.М. Среднеазиатский народные сказители. - М.: Наука, 1964. – 13 с.
- 34.Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Избранные труды. - Л.: Наука, 1974. – 727 с.
- 35.Зарифов Х. К изучения узбекского народного эпоса // Вопросы изучения эпоса народов СССР. - М., 1958. – С. 168.
- 36.Зарифов Х.Т. Основные мотивы эпоса «Алпамыш» // Об эпосе «Алпамыш». – Ташкент: 1959. - С. 9.
- 37.Qobulov E. Surxon vohasi xo‘jaligi (XVIII-XX asr boshlarida). Toshkent. “Akademnashr”, 2012. 408 bet.
- 38.Qoraboyev U. O‘zbekxalqibayramlari. Toshkent, “Sharq”. 2002.
- 39.Эргашев А. Шерободдостончиликмактаби: Фил. фанлариномзоди... дисс.: -Тошкент, 1991. – 166 б.
- 40.Қаҳҳоров А. «Келиной» туркумидостонларинингўзигахосхусусиятлари: Фил. фанлариномзоди... дисс.: - Тошкент, 1972. – 177 б.
- 41.Қурбонова Н. Ўзбек болалар маросим фольклори: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 20 б.
- 42.<https://lex.uz/>

Ilovalar



Ot chavandozni



Kupkari



Kupkari













